

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 110 (1709), 2026-yil 2-iyun, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



MILLIY BIRLIK, HAMJIHATLIKNING IQTISODIY IMKONIYATLARI VA MA’NAVIY POYDEVORI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 1-iyun kuni Xalqaro kongress markazida madaniyat, san’at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhiga davlat mukofotlarini topshirdi, shuningdek, soha vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi



Yangi O‘zbekiston so‘nggi o‘n yillikda katta iqtisodiy quvvat to‘pladi. Bu natijaga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q, albatta. Avvalo, yillar davomida yig‘ilib qolgan ko‘plab masalalarga kuchli siyosiy iroda bilan tezkor yechim berildi. Imkoniyatlar eshigi ochildi. Inson qadri ulug‘langan mamlakat fuqarolari yangicha kuch va shijoat bilan yashay boshladi. Ana shu iqtisodiy-ijtimoiy soha bilan baqamti holda madaniyat, san’at ham e’tibordan chetda qolgan yo‘q edi. Ayni paytda bu borada hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar ham bor edi.

Prezidentimizning madaniyat va san’at sohasi vakillari bilan uchrashuvi chog‘ida ilgari surilgan tashabbuslar, taqdim etilgan yangi imkoniyat va imtiyozlar sohada yangi davmi boshlab berdi. Tarixdan ma’lumki, iqtisodiy barqarorlik barcha ijtimoiy masalalarga yechim beradi. Ana shu o‘shish, taraqqiyot ma’naviyat, ma’rifat bilan uyg‘unlashsa, so‘nmas quvvatga aylanadi. Buni ulug‘ ajdodlarimiz ham o‘z hikmatlarida bot-bot takror etgan. Masalan, “Avesto”da bug‘doy ekkan kishi haqiqatni ekadi, deyiladi. Emishki, bug‘doy urug‘i yetilsa, devlar o‘rman qo‘zg‘alar, u xirmon bo‘lib uyilsa, devlar nobud bo‘larmish. Don — iqtisodiy quvvat. Devlar esa yovuz kuch, zamonamiz iborasi bilan aytganda, mafkuraviy xurujlar timsoli. Muddao

shuki, o‘tgan o‘n yilda mamlakatimizda haqiqat bo‘y cho‘zib, adolat tantana qildi.

Prezidentimizning shu yil 28-maydagi farmoniga binoan madaniyat, san’at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhi davlatimizning yuksak unvon va mukofotlari bilan taqdirlangan edi. Davlatimiz rahbari Toshkent shahridagi Xalqaro kongress markazida ushbu mukofotlarni o‘z egalari taqdim etdi.

— Qaysi millatning adabiyoti bo'y, musiqasi yurakka yaqin, teatri hayotiy, kinosi ta'sirchan, san'ati jozibador bo'lsa, o'sha xalqning ovozi dunyoda baland eshitiladi, — dedi Prezidentimiz.

Taraqqiy topgan jamiyatlarda ikkita tayanch ustun bo'ladi. Ular iqtisodiyot va ma'naviyatdir. Ma'naviy ildizi baquvvat xalqlar sinovlardan mardona o'tib, tezda yutuqlarga erishadi. Iqtisodiy barqaror jamiyatning esa ma'naviy qiyofasi ham ko'rkam bo'ladi. Bu ikkisi zanjir halqalari kabi bir-biriga bog'liq. Tantanalari marosimda mamlakat qudrati nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki davlatning ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan ham belgilanishi ta'kidlandi.

Shu ma'noda, yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida inson qalbini tarbiyalaydigan katta ma'naviy makon yaratilayotgani qayd etildi. Bu borada ziyolilar, yozuvchi

va shoirlar, madaniyat va san'at namoyandalari, kreativ soha vakillarining o'rmi beqiyos ekani ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari sohaning ilg'or 167 vakili yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlanganini mamnuniyat bilan ta'kidladi. O'zbekiston tarixida soha xodimlarining mehnati bunchalik keng ko'lamda taqdirlanmagan edi. Mana shuning o'ziyoq yuqorida aytganimiz yig'ilgan moddiy quvvatning ikkinchi tayanchga — ma'naviyatga kuch berayotganidan dalolat. Muhimi, yurtimizda inson qadri nechog'liq ulug'lanayotganining yaqqol dalilidir. Taqdirlanganlar orasida uzoq yillar samarali mehnat qilib, xalqimizning madaniy, badiiy va intellektual salohiyatini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shgan yozuvchi va shoirlar, xonanda va sozandalar, raqs ustalari, opera ijrochilari va bastakorlar, teatr, kino va sirk san'ati namoyandalari, baxshilar va askiyachilar, hunarmand va rassomlar, madaniy meros, muzey va kutubxona xodimlari, ustoz va murabbiylar borligi barchamizga faxr bag'ishlashi e'tirof qilindi.

Muhimi, bugun oramizda bo'lmas-da, so'zi, kuy-qo'shig'i, ijodi va butun hayoti bilan xalqimiz qalbidagi mangu yashab kelayotgan adabiyot, madaniyat va san'at darg'alarining xotirasiga yuksak ehtirom

ko'rsatildi. Ularning 24 nafari vafotidan so'ng davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

— Yurtimizdagi har bir insonning, hatto ular o'tib ketgan bo'lsa-da, xizmatlarini munosib e'tirof etish ham bizning ma'naviy burchimizdir. Bu ajdodlar xotirasini yuksak qadrlaydigan xalqimizning ko'nglidagi ish bo'ldi, — dedi davlatimiz rahbari.

Marosimda Prezidentimiz mukofot sohiblariga faxriy unvonlar, orden va medallarni tantanalari topshirdi.

Davlatimiz rahbari mukofotlanganlarni butun xalqimiz nomidan samimiy tabriklab, yuksak e'tirof ularni yangi-yangi ijodiy yutuqlarga ilhomlantirishini ishonch bilan ta'kidladi.

Mukofotlanganlar yuksak hurmat va e'tibor, madaniyat rivoji va ijodkorlarga yaratilayotgan keng sharoit uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Shundan so'ng Prezidentimiz madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan muloqot qildi. Unda adabiyot, madaniyat va san'at namoyandalari, shoir va yozuvchilar, aktyor, dramaturg va rejissyorlar, qo'shiqchi, sozanda va kompozitorlar, rassom, haykaltarosh, hunarmandlar, san'atshunos olimlar ishtirok etdi.

Mamlakatimiz yetakchisi madaniyat va san'at xalq ma'naviyati, jamiyat tafakkuri va yoshlar tarbiyasida beqiyos o'rin tutishini ta'kidladi.

Ayniqsa, hozirgiday texnik taraqqiyot va murakkab siyosiy jarayonlar fonida bu yanada dolzarblilik kasb etmoqda. Inson ongi va qalbini egallash uchun chegarasiz o'tish shart bo'lmay qoldi. Ana shunday sharoitda kitob, teatr, kino, musiqa va adabiyot jamiyatning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydigan eng ta'sirchan vositalar ekani qayd etildi.

Uchrashuvga tayyorgarlik jarayonida ijodkorlar bilan muloqot qilingani, madaniyat va san'at obyektlaridagi holat o'rganilgani ta'kidlandi. Ana shu o'rganishlar va yuqorida ta'kidlaganimiz iqtisodiy imkoniyatlar salmog'idan kelib chiqib, masalalarni hal etish, adabiyot, madaniyat, san'at va kreativ iqtisodiyotda yangi muhit yaratishga qaratildi.

Muloqotda dastlab ijodkorlarni rag'batlantirish, yosh iste'dod egalari qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim joriy etilishi belgilandi. Teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg'u, tasviriy va amaliy san'at kabi 21 yo'nalish bo'yicha ijodiy birlashmalar tashkil etiladi. Ularga ustoz ijodkorlar, vazirlar va yirik kompaniyalar rahbarlari hamrais bo'ladi.

Bu birlashmalar tumanlardagi musiqa maktablari va badiiy jamoalar bilan ishlab, yosh iste'dod egalari aniqlyadi. Shuningdek, mahalla — tuman — viloyat

— respublika bosqichlarida tanlovlar o'tkazadi. G'oliblarni gastrol safarlari, festivallar va xalqaro tanlovlarda qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadi. Ya'ni birlashmalar iste'dodlarni axtarib topishdan tortib, ularni qo'llab-quvvatlab, katta ijod maydoniga olib chiqadigan yaxlit tizim bo'ladi.

Shuningdek, har yili milliy ijodkorlar qurultoyi o'tkaziladigan bo'ladi. Unda yil davomida eng yaxshi natija ko'rsatgan ijodkorlarning badiiy kechalari tashkil etilib, ular munosib taqdirlanadi. Xususan, musiqa sohasida yangi asarlar yaratgan, xalqaro tanlovlarda g'olib bo'lgan yoki asarlari mamlakat va xalqaro sahnalarda ijro etilayotgan qo'shiqchi, sozanda va kompozitorlar, adabiyot sohasida esa asarlari keng e'tirof etilgan, katta adadda chop etilgan, teatr va kinoda sahnalashtirilgan shoir, yozuvchi va dramaturglar rag'batlantiriladi.

Bunday ijodkorlarga yil davomida har oyda 5 million so'mdan honorar beriladi. Ular O'zbekiston bo'ylab samolyot, poyezd va jamoat transportidan bepul foydalanadi. Ixtisoslashgan tibbiyot markazlarida davolanish xarajati byudjetdan qoplanadi. Ularining mahorat maktablari va ijod uyleri tashkil etiladi.

➔ Davomi 2-beta

PREZIDENT TASHABBUSI: QALBLARGA MUHURLANGAN MA'NAVIY IMZO



Yangi O'zbekiston ruhi

Taraddud hayajoni

Olamdagi jamiki ezgu ishlar, barcha bunyodkor harakatlar dastlab yaxshi niyatdan, xushxabardan boshlanishi haq gap. Agar inson ko'nglida bir yorug' orzu tug'olsa, u kun kelib, albatta, hayotiy voqeelikka aylanadi.

Bekobod tumani bo'ylab so'nggi bir yilda jadal sur'atlarda boshlangan bir-biridan quvonchli voqealar, odamlar ko'z o'ngida sodir bo'layotgan ulkan o'zgarishlar, xonadonlarga, oilalar turmush sharoitiga kirib borayotgan xalqchil ishlohtlar mevasi — bularning bari kitoblarga sig'maydi.

➔ Davomi 3-beta

Kun mavzusi

FOYDA SOLIG'I NOL FOIZ

Kichik biznes egalari uchun yangi imtiyozlar berilmoqda

Yurtimizda tadbirkorlar bilan doimiy muloqotlar, sohalari kesimida muntazam uchrashuvlar o'tkazilayotgani bejiz emas. Ularda biznes egalari qiyinayotgan masalalar, ish jarayoniga to'siq bo'layotgan muammolar, aniq taklif va tashabbuslar o'rtaga tashlanadi. Muhokamalar davomida aksariyati yechimini topayotgan bo'lsa, katta va tizimli masalalar to'planib, umumlashtirilgan holda davlatimiz rahbariga taqdim etiladi. Ko'tarilayotgan masalalarning yechimi uzoq kuttirmayotgani esa tadbirkorlarning hech bir taklif va tashabbusi shunchaki qolib ketmayotganidan dalolat.

Odatda, yurtimiz biznes egalari o'zlari kutgan yangilik va o'zgarishlarni har yili avgustda davlatimiz rahbari bilan bo'lib o'tadigan an'anaviy ochiq muloqotda eshitishga o'rganib qolgan. Taklif va tashabbuslarni ham ana shu muloqotdan bir necha oy oldin to'plash yo'lga qo'yilgan. Shu bois, biznes sohasi vakillarining aksariyati ana shu ochiq muloqotni kutib, unga katta tayyorgarlik ko'radi.

➔ Davomi 4-beta



MILLIY BIRLIK, HAMJIHATLIKNING IQTISODIY IMKONIYATLARI VA MA'NAVIY POYDEVORI

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimiz yetakchisi yosh iste'dod egalari, ularning ustozlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham muhim choralar belgilab berdi. Xususan, 1-sentabrda boshlab respublika tanlovi g'oliblariga 100 million so'm, nufuzli xalqaro tanlov sovrindorlariga 300 million so'mgacha mukofot beriladi. Bundan tashqari, ularning tanlovda ishtirok etish xarajati to'liq qoplanadi. Ustoz va murabbiylar oylik maoshiga 100 foizgacha ustama to'lanadi. Bular osongina aytilsa-da, aslida, juda katta mablag', har bir so'm esa mashaqqatli mehnat degani. Rag'batlar esa, faqat shu bilan cheklanib qolgan yo'q. Jumladan, endi har yili 100 nafar yigit-qiz davlat hisobidan xorijiy madaniyat va san'at muassasalarida ta'lim olishga yuboriladi. Yosh iste'dod egalari aniq, prodyuserlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ijodga investitsiya" jamg'armasi tashkil etilib, unga yiliga 200 milliard so'm ajratiladi.

Yig'ilishda ijodkorlarning mualliflik huquqini himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Adabiyot, madaniyat va san'at sohasida yaratilgan har bir mahsulot ijodkorning intellektual mulki ekan, har bir badiiy asar, musiqa va qo'shiq muallifiga daromad keltirishi zarurligi ta'kidlandi. Mas'ullarga mualliflik huquqini kafolatli himoya qiladigan tizim ishlab chiqish topshirildi.

Adabiyot sohasi vakillari uchun ham yangi imkoniyatlar yaratiladi. Shoir va yozuvchilarga yiliga kamida 50 ta eng sara asar uchun ijodiy buyurtma beriladi. Yangi tashabbuslar qanotida o'zbek adabiyoti xalqaro darajada ham ommalashadi. Ya'ni har yili o'zbek adabiyotining 10 ta eng yaxshi asari xorijiy tillarga tarjima qilinadi. Mualliflar ishtirokida chet ellarda taqdimotlar o'tkaziladi. Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi asosida chop etiladigan kitoblarning qog'oz bilan bog'liq xarajati davlat tomonidan qoplanadi.

Har yili 1000 nafar shoir va yozuvchi, madaniyat va san'at vakili, muzey xodimi va rassomlarga uy-joy olish uchun ipoteka krediti dastlabki to'lovining 50 foizi qoplab beriladi. Boshqa hududdan kelib ishlayotgan soha vakillariga uy-joy ijarasi xarajati uchun Toshkent shahrida oyiga 2,5 million so'mgacha, viloyatlarda 1 million 600 ming so'mgacha kompensatsiya to'lanadi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida yana bir tashabbus: har yili faoliyatida yaxshi natijaga erishgan 1000 nafar soha xodimi Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi hisobidan bepul davolanadi. Yana 2000 nafar ijodkoriga davlat tomonidan tibbiy sug'urta paketi taqdim etiladi. Kamida 10-yil ishlagan xodimlarga kasaba uyushmalari sanatoriylariga bepul yo'llanma beriladi.

Ashula va raqs ansambllarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1-sentabrda boshlab ulardagi barcha xodimlarning ish haqi 2 barobar oshiriladi. Raqs ustalari uchun pensiyaga chiqishda talab etiladigan raqs staji 20 yildan 15 yilga qisqartiriladi. Yangi Toshkentda qurilishi boshlangan Maqom markazi yonida zamonaviy Raqs saroyini barpo etish taklifi ilgari surildi.

Kompozitor va bastakorlar faoliyatini moliyalashtirish, ularni moddiy rag'batlantirish tizimi ham qayta ko'rib chiqiladi. Har yili ularga opera, simfoniya kabi mumtoz va zamonaviy janrlar bo'yicha kamida 20 ta yangi asar yaratish uchun davlat buyurtmasi beriladi.

Prezidentimiz jamiyatimizda milliy ruhni mustahkamlashning ahamiyatiga alohida to'xtaldi. Ayni vaqtda xalqni ilhomlantiradigan adabiyot, yoshlarga faxr va iftixor beradigan kino, qalblarni junbishga keltiradigan musiqa, odamni o'zini anglashga undaydigan teatr kerakligi ta'kidlandi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizda muhim o'rin egallayotgan hozirgi davrda ijodkor, ziyolilarning raqamli maydondagi ovozi balandroq yangrashi zarurligi qayd etildi.

Yangi O'zbekistondagi ezgu tashabbuslardan, shubhasiz, "Bir kitob" va madaniyat karvonlari yo'lga qo'yilgani edi. Bugun

olis qishloq va ovullarda ham madaniyat, adabiyot va san'at vakillari uchrashuvlar o'tkazib, kitoblarni ulashmoqda. Bu boradagi ishlarni esa yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi talab qilmoqda.

Madaniy tadbirlarga talabni oshirish maqsadida ham yangi mexanizmlar joriy qilinadi. Har yili 500 ming o'qituvchi, shifokor, davlat xizmatchisi, faol o'quvchi va talabalarga, shuningdek, 100 ming ehtiyojmand oila va nogironligi bor bolalarga teatr, kino va konsertlarga bepul vaucherlar beriladi.

Shuningdek, 1-iyuldan har bir tuman va mahallada konsert-tomosha tadbirlari o'tkazish xarajatining 20 foizgacha qismi byudjetdan qoplanadi. Konsert-tomosha, xususiy teatr, kinematografiya, bolalar kontenti, madaniyat va san'at yo'nalishidagi xususiy ta'lim tashkilotlari qator soliqlardan ozod qilinadi. Adabiyot, madaniyat va san'atni rivojlantirishga yo'naltirilgan homiylik mablag'lari ham soliqqa tortilmaydi.

Viloyat hokimliklari huzurida alohida direksiyalar tashkil etilib, ular konsert, teatr va madaniyat saroylari zallaridan samarali foydalanish, har kuni madaniy tadbirlar o'tkazish uchun mas'ul bo'ladi.

Teatr sohasida ham keng imkoniyatlar yaratiladi. O'tgan yili Alisher Navoiy nomidagi teatrga moliyaviy, ijodiy va tashkiliy masalalarni mustaqil hal qilish vakolati berilgani yaxshi natija bergani ta'kidlandi. Jumladan, bir yilda spektakllar soni 1,5 barobar, tomoshabinlar esa 2 karra ko'paygan. Mazkur tajriba Muqimiy, Berdaq va Milliy qo'g'irchoq teatrlariga ham tatbiq etiladi.

Xususiy teatrlar va teatr-studiyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1-sentabrda boshlab har yili 50 ta sahna asari yaratish xarajati davlat tomonidan qoplab beriladi. Ularga davlat madaniyat obyektlari bepul foydalanish uchun ajratiladi. Agar ular xususiy binoni ijaraga olsa, oyiga 20 million so'mgacha ijara xarajati byudjetdan qoplanadi. Spektakllar uchun sotilgan har bir chiptaga byudjetdan qo'shimcha gonorar to'lash tizimi joriy etiladi.

Kino sohasini rivojlantirish bo'yicha ham muhim vazifalar belgilandi. "O'zbekfilm"ga milliy maqom berilib, u mahalliy va xalqaro kinoindustriyaga xizmat ko'rsatadigan markaziy kinokonserga aylantiriladi. Milliy filmlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish maqsadida global kinoplatfomalarni hamkorlik kuchaytiriladi.

Davlat buyurtmasi asosida film yaratishda targ'ibot va reklama xarajatlari uchun film byudjetining 30 foizgacha mablag' ajratiladi. Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan filmlar namoyishidan tushgan mablag'ning 50 foizi prodyuser va ijodiy guruhga qo'shimcha rag'bat sifatida beriladi. "Oltin humo" milliy kino taqdimotining nufuzini yangi bosqichga ko'tarish uchun har yili 5 milliard so'm ajratiladi.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish alohida yo'nalish sifatida belgilandi. Yaqin yillarda madaniyat va san'atda qo'shilgan qiymatni ko'paytirish orqali kreativ iqtisodiyot qiymatini 145 trillion so'mga yetkazish maqsad qilingan. Shu bois, sohaning huquqiy asosi ishlab chiqilgan. Kreativ industriya parki rezidentlari uchun alohida soliq rejimi joriy etilgan. Shayxontohur tumani va Nukus shahrida yirik kreativ parklar qurilishi boshlangan.

Hunarmandchilik mahsulotlariga zamonaviy dizayn olib kirish orqali ularning qo'shilgan qiymatini 5-10 karra oshirish bo'yicha loyihalar amalga oshiriladi. Xalqaro dizaynerlar bilan hamkorlik ko'lami kengaytirilib, Yevropa, AQSH, Janubiy va Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlarida ko'rgazmalar ko'paytiriladi. Har bir hududda yil davomida mega tadbirlar tashkil qilish bo'yicha dastur ishlab chiqiladi.

Uchrashuvda madaniyat va san'at sohasida ta'lim tizimini takomillashtirish masalasi ham atroficha muhokama qilindi. Umumta'lim maktablarida musiqa, tasviriy san'at va texnologiya darslari "Art" o'quv dasturi asosida yangilanadi. Yangi o'quv yilidan har bir viloyatdagi 10 tadan umumta'lim maktabida tajriba tarzida art

yo'nalishi joriy etiladi. Bunda boshlang'ich sinflarda bolalarni rasm, musiqa va o'yinlar orqali ijodga qiziqitirish, yuqori sinflarda esa dizayn, grafika, sun'iy intellekt va kreativ loyihalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Yurtimizdagi 326 ta musiqa va san'at, 29 ta ixtisoslashgan maktabda 95 ming o'g'il-qiz ta'lim olayotgani qayd etildi. Ushbu muassasalar uchun aniq samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi. Musiqa maktablari bitiruvchilari o'z yo'nalishidan tashqari qo'shimcha bitta milliy cholg'uni bilishi talab etiladi.

Yangi o'quv yilidan 326 ta musiqa va san'at maktabi o'qituvchilarining oylik maoshi umumta'lim maktablari o'qituvchilariniki bilan tenglashtiriladi. Umumta'lim va musiqa maktabi o'qituvchilari ish haqiga o'quvchilarining cholg'ularni qay darajada ijro etishiga qarab, 20 foizgacha ustama to'lanadi. Kamida 1,5 million o'quvchini musiqa va san'atga jalb qilish vazifasi qo'yildi.

Har bir umumta'lim maktabida musiqa va san'at maktabi yo'nalishida kamida 4 tadan to'garak tashkil etiladi. Milliy cholg'u sotib olganlarga xarajatining 30 foizi qoplab beriladi. Imkoniyati cheklangan yoshlar uchun hududlarda inklyuziv ijodiy ustaxonalar tashkil etiladi va ushbu yo'nalishga har yili 30 milliard so'm ajratiladi.

Kadrlar tayyorlash tizimi ham qayta ko'rib chiqiladi. Yangi o'quv yilidan ixtisoslashgan maktablarga o'quvchilar musiqa yo'nalishida 5-sinf, raqs, teatr va san'at bo'yicha 9-sinfdan qabul qilinadi. Musiqa va san'at, estrada va sirk texnikumlarida Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkaziladi. Ularga oliy maktab maqomi beriladi va o'quv jarayoni uch yillik dastur asosida tashkil etiladi.

Madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliyoghlarda dual ta'lim yo'lga qo'yildi. Har bir talabaga taniqli ijodkorlar biriktiriladi. Ular yoshlarni konsert, teatr va tomoshalarda ishtirok ettirish orqali katta sahnaqa tayyorlaydi. Ta'lim dasturlariga "Art menejment", "Kreativ

industriya", "Loyihalarni tijoratlashtirish" kabi zamonaviy mavzularga kiritiladi. Talabalarning startap loyihalari uchun 10 ta oliygohga 50 milliard so'm ajratiladi.

Har bir soha istiqboli malakali kadrlarga bog'liq. Yig'ilishda mazkur yo'nalishga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, soha xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha yaxlit tizim yaratiladi. Mavjud markazlar negizida Madaniyat vazirligi tizimida malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti tashkil etiladi. Mazkur institut umumta'lim maktablaridagi musiqa o'qituvchilarining malakasini oshirish uchun ham mas'ul bo'ladi.

— Bugun dunyoda qanday tahlikali holat, qarama-qarshilik va nizozorlar o'yberayotganini ko'rib turibmiz. Bunday vaziyatda biz uchun milliy birlik va hamjihatlik har qachongidan ham muhim. Ishonchim komil, bu borada sizlar eng oldingi safda turib, chinakam vatanparvarlik, millatga sadoqat va fidoyilik fazilatlaringiz bilan yoshlarimizga, butun xalqimizga namuna bo'lasizlar, — dedi Prezidentimiz.

Hazrat Navoiy doim komil inson sog'inchi bilan yashagan. Komillik sari eltdagidan gumanistik g'oyalarni tarannum etgan. Bugun yangi O'zbekistonda ushbu ezgu niyat o'zining amaliy ifodasini topib bormoqda. Buni ijod ahliga qaratilgan e'tibor va ehtiromda ham ko'rish mumkin. Bu esa o'z o'rnida Uchinchi Uyg'onish davri uchun munosib sarmoyadir. Zero, ijod ahlining fidoyi mehnati tufayli jamiyatda milliy ruh mustahkamlanadi. Yoshlar qalbida ezgulik, vatanparvarlik tuyg'ulari chuqur joy oladi. Yurtsevarlik esa shaxslarga cheksiz quvvat, olg'a intilish ishtiyoqini beradi. Mamlakat yetakchisining soha xodimlari bilan uchrashuvi ana shunday tarixiy bosqichni boshlab berdi.

Davlatimiz rahbari soha vakillari bilan samimiy muloqot qilib, ularning fikr-muhazalarini, taklif va tashabbuslarini tingladi.

Boboravshan G'oziddinov,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

FAXRLANDIM VA QUVONDIM

Yurtimizda madaniyat va san'at sohalari rivojiga alohida e'tibor qaratilganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Ijod ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun munosib shart-sharoit yaratish, milliy san'atimizni xalqaro maydonda keng targ'ib etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmog'da.

Prezidentimiz tomonidan o'zbek milliy kinematografiya sohasidagi ko'p yillik mehnatlarim e'tirof etilib, soha fidoyisi sifatida "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti" faxriy unvoni bilan taqdirlanganim ham san'at ahliga ko'rsatilgan yuksak e'tirofning yaqqol ko'rinishidir.

Mazkur mukofot menga juda katta rag'bat bag'ishladi. Faxrlandim, quvondim. Kuch va rag'bat oldim hamda o'zimga ishonchim

yanada ortdi. Bu shunchaki taqdirlash va birgina mening yutug'im emas, balki milliy kino san'atini rivojlantirish yo'lida kechayu kunduz fidoyilik bilan mehnat qilayotgan barcha hamkasb ijodkorlarimizga bildirilgan katta ishonch deb bilaman.

Ayniqsa, marhum san'atkorlarning davlat mukofoti bilan taqdirlanganini eshitib hayajonlandim. Ijod ahliga ko'rsatilayotgan bu hurmat, ehtirom va e'tibordan boshim ko'kka



Munosabat



yetti. Vujudimga yangi kuch kirib keldi, xalqimizga kerak ekanimni yurak-yurakdan his etdim.

Matyoqub MATCHONOV,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

SAN'AT AHLI O'Z ISTE'DODI BILAN XALQQA XIZMAT QILADI

Bugungi kun o'zbek san'ati va madaniyati sohasining barcha vakillari uchun unutilmas, tarixiy sana bo'ldi. Prezidentimizning shaxsan o'zi sohaning bir guruh fidoyilari, ustozlarimiz va hamkasblarimizni orden, medal va turli davlat mukofotlari bilan taqdirladi.

Munosablarning qadr topganini ko'rib, xuddi o'zim mukofot olgandek xursand bo'ldim. Biz, ijod ahli bilan dildan suhbatda soha rivoji yo'lida xizmat qiladigan turli yangilanish va islohotlar, loyiha va mexanizmlar haqida so'z bordi. San'atkorlar uchun turli rag'bat va imtiyozlar, imkoniyatlar berildi.

Uchrashuvda barcha san'at fidoyilari davlatimiz rahbariga soha rivoji yo'lida o'z fikr-mulohazalari va takliflarini bildirdi. Prezidentimiz ularni amaliyotdagi taqdiri borasida mas'ullarga tegishli topshiriqlarni berdi.

Jumladan, umumta'lim maktablarida musiqa, tasviriy san'at va texnologiya darslari "art" o'quv dasturi asosida takomillashirilishi qo'l keladi. Ushbu yo'nalish bolani kreativ fikrlash, jamoaviy ishlashga o'rgatadi, unda estetik did, hissiy intellekt va innovatsion tafakkurni shakllantiradi.

Mutasaddilarga yangi o'quv yilidan har bir viloyatdagi 10 tadan umumta'lim maktabida tajriba tarzida "art" yo'nalishini joriy qilish topshirildi. Bunda 1-4-sinfda bolalar rasm, musiqa va o'yinlar orqali ijodga, madaniyat va san'atga qiziqitirish aytiladi. Bolalarda yoshligidan san'at, xususan, musiqa va



mehr qo'yishga xizmat qiladi. Kasb-hunari qanday bo'lishidan qat'i nazar, ushbu fazilatlar barcha uchun muhim.

Prezidentimiz bilan uchrashuvda respublikaning turli hududlarida gastrol-konsertlarni tashkil etish taklifini bildirdim. Chunki bugungi kunda konsertlarning aksariyati restoran va boshqa joylar, poytaxtdagi konsert zallarida bo'lib o'tgan. Tabiiyki, aksariyat aholining ularni tomosha qilishga imkoniyati yo'q. Turli hududlardagi gastrol-konsertlarga ko'proq yosh iste'dodlarni jalb qilish ahamiyatli. Bu ular uchun ham tajriba maydoni vazifasini o'taydi, ham xalqimizning maroqli madaniy horidiq chiqarishini ta'minlaydi. Zero, biz san'at ahlining vazifasi ham shu: o'z iste'dodi bilan xalqqa xizmat qilish.

Uchrashuvda qanchalar xursand bo'lgan bo'lsam, shunchalar mas'uliyatni his qildim. Sababi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, davlatni iqtisodiyot ko'taradi, qonun boshqaradi, armiya himoya qiladi. Lekin qaysi mamlakat adabiyot va madaniyatga e'tibor bersa, kelajagi mustahkam bo'ladi. Qaysi jamiyat ijod va san'atni qadrlasa, o'sha xalqning ma'naviy immuniteti kuchli bo'ladi. Zero, yangi O'zbekiston xalqining ma'naviy immunitetini shakllantirish biz ijodkorlarning fidoyiligi, tinimsiz mehnati, ilm-tafakkuri va iste'dodiga bog'liq.

Nasiba ABDULLAYEVA,
O'zbekiston xalq artisti

IJOD – HAYOTIM, NAFASIM VA BORLIG'IM

"O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi" faxriy unvoni bilan taqdirlanganim, avvalo, san'atimiz va madaniyatimizga qo'shgan kamtarona mehnatimga berilgan yuksak baho. Bu e'tirof har qanday ijodkor uchun beqiyos sharaf, ayni paytda ulkan mas'uliyat hamdir.

Chunki xalq ishonchi ijodkor zimmasiga yuksak talab va vazifalarni yuklash barobarida cheksiz quvvat va ilhom baxsh etadi. Yangi ijodiy marralar sari intilishiga kuchli turki beradi. Zero, san'at — tinimsiz izlanish, ruhiy kamolot va qalb mehnati. Ijodiy faoliyatim davomida yaratgan asarlarimda, asosan, ona Vatanimiz manzaralari, xalqimizning boy tarixi, milliy qadriyatlar



va inson qalbining nozik kechinmalarini ifodalashga harakat qilaman. Tabiat va inson, milliy ruh va zamonaviylikni uyg'unlashtirish ijodimning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Shu bilan birga, o'zbek multiplikatsiyasi va "O'zbekfilm" kinostudiyasida bir qancha animatsion filmlarga rejissyorlik va rassomlik qildim.

Davlatimiz rahbari tomonidan mehnatimning yuksak darajada e'tirof etilgani beqiyos tuhfa bo'ldi. Shu bois, ushbu mukofot yangi asarlar yaratishimda, shogirdlarimga san'at sirlarini mukammal darajada o'rgatishim va eng asosiysi, milliy san'atimizni yanada yuksak pog'onalarga olib chiqishga hissa qo'shish uchun yangi mas'uliyat hissini uyg'otadi.

Albatta, "O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi" degan yuksak unvon zimmasida ekan, izlanishdan to'xtamayman, yangi g'oyalar va badiiy yechimlar ustida ishlashda davom etaman. Ona yurtimizning betakror go'zalligi, xalqimizning boy madaniyati va ruhiyatini tarannum etuvchi yangi-yangi asarlar yaratishdan charchamayman.

Chunki san'at mening hayotim, nafasim va qalbidir.

Mazvur MAHMUDOV,
O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning tumanimizga, uning 175 ming aholisiga alohida mehr va e'tibori tufayli keyingi bir yil Bekobod tumani uchun "katta sakrash" yili bo'ldi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Avvalboshda bunday o'zgarishlardan hayratda bo'lgan tuman ahli oradan hech qancha vaqt o'tmay, ushbu bemiyl yangilanishlarga yeng shimarib qo'shilib ketdi.

Qirq yil orzu qilingan, ota-bobolarimiz ko'rmay o'tib ketgan muhtasham ko'priklar bitdi, poytaxtga olib boruvchi tez-yurar poyezdlar uchun temir yo'l qurilishi boshlandi, o'nlab ta'lim, madaniyat va sport inshootlari barpo etildi, 30 ming aholi yashashiga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" massiviga poydevor qo'yish arafasida turibmiz. Yo'llar, elektr va ichimlik suv tarmoqlari yangilandi, umrida bozorga yochimagan tumanga bir emas, biron-bir ikkita zamonaviy bozor qurilmoqda.

O'tgan qisqa muddatda jami 51 ta mahalla binolari havas qilgudek qiyofaga keltirildi, ulardan 24 tasi yangidan bunyod etildi. Atrofida infratuzilma barpo qilinib, butun tuman hududi jo'shqin hayot tarziga o'tdi.

Katta-kichik o'nlab ishlab chiqarish korxonalarini, tadbirkorlik subyektlarini, yuzlab xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyatini yo'lga qo'yilishi orqali odamlarning turmush sifati yaxshilanmoqda, minglab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Zafar shaharchasining qoq markazida qad ko'targan, Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan yaqinda ochilish marosimi bo'lib o'tgan Yangi Bekobod markaziy maydonining serviyor arkasi, xotira majmuasi, tuman tarixi muzeyi, eng muhimi, 35 metrlilik davlat bayrog'i kun sayin qadrlash, ko'ksi tog'dek baland bo'layotgan mehnatkash bekobodliklarning g'ururi ramziga aylandi.

Mana shunday hayajonlar ichra yashayotgan paytimizda yana bir xushxabar keldiki, Bekobod tumanida boshqa sohalaridan aslo kam bo'lmagan holda ma'naviy bunyodkorlik ham jadal o'sayotganiga shubha qolmadi.

Bundan 9-yil avval Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan "Yosh kitobxon" tanlovining respublika final bosqichi tumanimizda o'tkazilishi har bir bekobodlik qalbiga cheksiz g'urur va iftixor hissini jo qildi.

Lekin bu faqat iftixor emas, ulkan mas'uliyat, bizga bildirilgan katta ishonchga munosib javob berish imkoniyati ham edi. Shu bois, nafaqat mas'ul va mutasaddilardir, balki butun tuman ahli ushbu ma'rifat bayramini munosib hamda yuqori saviyada o'tkazishga astoydil tayyorgarlik ko'rdik.

Bir-biridan ko'rkam bunyodkorlik inshootlari sababli tobora chiroy ochayotgan Bekobod tumani endi yana bir go'zallik — kitobxonlik nafasi va ilm ziyosi bilan har qachongidan ham yorishib ketdi.

Tumanimiz o'rtasidan hayqirib oqib o'tgan, bir vaqtlar ustoz Oybek domlaga ilhom ulashgan Sirdaryoning so'lim qirg'oqlari, Pirimqul Qodirov va Muhammad Ali singari zabardast adiblarga ta'lim-tarbiya bergan Bekobod quchog'i yana ulkan mutolaa maydoniga aylandi.

Biz yurtimizning 42 nafar eng zukko, aziz farzandiga mezbonlik qilish sharafiga muayassar bo'lgan edik. Bekobod kitob yog'dusiga, ilm nuriga to'ldi. Qurilish jabhalarida kunu tun mehnat qilayotgan mohir ustalar, dalalarla yerga urug' qadayotgan dehqonlar, ipak qurti boshida bedor bo'lgan zahmatkash pillachilar, beshik tebratayotgan kelinchaklar, nuroniy otaxon va onaxonlar, qo'yingki, hamma-hammaning qalbiga kitob bayramining hayajoni uyg'ondi.

Kitob uzra Vatan jamlandi

18-may kuni tumanimizning keng jamoatchiligi ishtirokida jonajon O'zbekistonimizning barcha hududlaridan kelgan 42 nafar bilimdon va kitobxon farzandimizni, ularga hamrohlik qilgan bobu-buvilarini, ota-onalarini, nufuzli hakamlar va Yoshlar ishlari agentligi mas'ullarini katta shodiyona ruhi, karnay-surnay sadolari va non-tuz bilan kutib oldik.

Prezidentimiz nutqlaridan birida "Kitob o'qishga ishtiyoqmand, ilmga chanqoq



Yangi O'zbekiston ruhi

PREZIDENT TASHABBUSI: QALBLARGA MUHURLANGAN MA'NAVIVY IMZO

va zehnil farzandlarimiz timsolida ko'z oldimizda buyuk ajdodlarimizga munosib ma'rifatli avlod shakllanmoqda", degan edi. Darhaqiqat, avtobusdan tushib kelayotgan 10-30 yoshli kitobxonlar ana shu ishonch bilan aytilgan so'zlarning hayotiy isboti edi. Ularning har birini xuddi o'z farzandlarimizdek bag'rimizga mahkam bosdik, chin diildan qutladik, respublika bosqichida omdalar tiladik. Chunki ular final bosqichiga yetib kelgunicha qancha tularni tonglarga ulab, mutolaa qilganini, maktabdan, oliyoghdan, turmush qurgan qizlar esa uy yumushlaridan, boladan, qaynona-qaynota xizmatidan ortib, tulari kitobga mashg'ul bo'lganini biz ham chuqur anglaymiz.



Kuchli bilim va xotira, kitoblardan egallangan ilm va hayrat, ota-onalarning duosi, eng muhimi, davlatimiz rahbarining yuksak ishonchi barcha ishtirokchilarga beshta shart davomida



muxlislik kayfiyati bilan jam bo'ldik. Shu o'rinda bir jihati aytmak bo'lmaydi. To'g'ri, hammamiz ham kitob o'qiyamiz. Biroq o'qigan va uqqan ma'nolarini ulkan izdihom qarshisida turib, minglab kuzatuvchilar, nufuzli hakamlar va saloblatli ekspertlarning sinchkov nigohi ostida so'zlab berish juda mushkul ekanini ich-ichimizdan his qildik.

Mir Alisher Navoiy bobomizning "Oson emas bu maydon ichra turmoq..." degan teran falsafasini shu yerda o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Quvonarli, garchi ota-onalar, kuzatuvchilar har qancha hayajon taysak ham asl bilimdon va kitobxonlar o'z salohiyatini namoyish qilishda chin jasorat namunasini ko'rsatdi.

Yoki avtohalokat tufayli turmush o'rtog'i bevaqt vafot etib, ikki farzandini yolg'iz ulg'aytirayotgan surxondaryolik ishtirokchi Fazilat Diyorova ko'rsatgan eng yuqori natija ham barchani birdek hayratga soldi.

"Boshimga tushgan kutilmagan baxtsiz hodisani va ayriliq dardini faqat kitobxonlik orqali yengib kelmoqdaman. Bugun g'oliblik shohsupasida turarkanman, ko'z oldimdan o'sha og'ir kunlar bir-bir o'tmoqda. Biroq kitoblar olami meni hamisha qayg'u va tushkunlikdan asradi. Buning uchun umrim bo'yi kitoblarga va ushbu tanlovga ta'zimdaman", deydi Fazilat ko'zda yosh bilan.

Shunda tushundikki, kitob va mutolaa faqat ma'naviy ozuqa va ilm emas, hayotning pastu baland sinovlarida inson irodasini toblaydigan, unga ruhan madadkor bo'ladigan mo'jiza hamdir.

Hakamlar hay'ati a'zosi, sevimli shoirimiz Eshqobil Shukur tanaffus paytida

bir iftixonni alohida ta'kidladi: "Bu yilgi barcha qatnashchilar favqulodda zukko va bilimdon. Bu, hech shubhasiz, yurtimizda kitobxonlikka bo'lgan e'tiborning yil sayin rivojlanib borayotgani mevasidir".

Chindan ham, ulkan ekranlar orqali har uchala yosh toifasidagi kitobxon bolalarning chiqishini kuzatar ekanmiz, Qoraqalpog'istonda Andijongacha, Toshkentdan Surxondaryogacha bo'lgan hududlardan kelgan bu bilimdonlar o'z hududlari sharafiga himoya qilish hamda Prezidentimiz sovg'asiga munosib bo'lish uchun bor kuch-g'ayratini, salohiyatini ishga soldi. Maydonida — kuchlilar, ularning bilimiga bosh mezon esa adolat bo'ldi.

Farzandi sahnaga chiqqanda monitor qarshisida ko'zda yosh bilan teppa-teng pichirayotgan ota-onalar, nabirasini duo qilib turgan bobu-buvilar, shogirdi ortidan parvona bo'lgan ustozlar, opasi yo akasini qo'llab-quvvatlash uchun kelgan jajji va murg'ak izdoshlar — bularning bari Bekobod tumaniga yangi ilhom va betakror hissiyotlar baxsh etdi.

Bizni hayajonlantirgan yana bir quvonchli holatni ham aytishimiz joiz. Bekobod tumanidagi 42-maktabning 7-sinf o'quvchisi, oddiy suvchining farzandi Odinaxon Suvonqulova bu yilgi "Yosh kitobxon" tanlovining respublika bosqichida 10-14 yoshlilar o'rtasida ishtirok etgani, Toshkent viloyati va tumanimiz sharafiga munosib himoya qilgani qalblarimizni g'ururga to'ldirdi.

Avvalroq bu kitobxon qizimiz "Kitobxon kids" respublika tanlovida faxrli 1-o'rinni qo'liga kiritgan edi. Odinaxon ushbu yutug'i tumanimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ajoyib namuna bo'ldi va uning xonadonida tuman jamoatchiligi tomonidan 5000 ta kitobdan iborat kutubxona tashkil etib berildi. Endi 14 yoshli qizchamizning uyida o'z shaxsiy kutubxonasi bor.

Prezidentimizning ezuq maqsadlari ham aslida shu, ya'ni har bir oila kitobga do'st bo'lsin, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz kitob bilan birga ulg'aysin. Chunki oilalarda kitob o'qilishi jamiyatning yuksalishi va yutug'idir.

Bunday ezuq ishlar jadal davom ettirilib, tumanning bosh maydonida Bekobod markaziy kutubxonasini barpo etish boshlandi. Barcha sharoitlarga ega bo'ladigan zamonaviy bu ziyo maskani mustaqilligimizning 35 yillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilishi haqida eshitib, bir quvonchimizga o'n quvonch qo'shildi. Bunday kutubxonalar endi tumandagi 51 ta mahallaning har birida tashkil etiladigan bo'ldi.

Shuningdek, o'tgan bir yil davomida "Har maktabga 100 kitob" tashabbusi va boshqa madaniy tadbirlar doirasida 60 ta umumta'lim va 3 ta xususiy maktabga 20 mingta eng sara adabiyot sovg'a qilindi.

Ushbu kitoblarni topshirish tadbirlari chinakam ma'rifat bayramiga aylanib

ketdi. Chunki ushbu tadbirlar doirasida tumanimizga 500 dan ziyod olim, tanliq shoir va yozuvchilar, senatorlar, jurnalistlar va san'atkorlar tashrif buyurdi.

O'tgan yili tumanimizda Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan o'tkazilgan Hosil bayrami bir ajoyib jihati bilan ko'pchilikning yodida qoldi. Ya'ni ushbu bayramga bag'ishlab tashkil etilgan uluqo'pkari musobaqasida bosh sovrin sifatida 1000 ta kitob qo'yilgan, mohir chavandoz va polvonlar aynan mana shu g'oyat qimmatli ma'naviy boylikka erishish uchun astoydil kuch sinashgani butun respublikaga xushxabar bo'lib yoyildi.

Tumanimizda kitobga bo'lgan shunday hurmat-ehtiram "Yosh kitobxon" tanlovi bu yil aynan Bekobodimizda o'tkazilishiga poydevor bo'lgani biz, ziyolilar qalbini cheksiz g'urur va iftixorga to'ldirdi.

Davlatimiz rahbari har gal kitobxonlik haqida so'zlaganida "Biz bugun bolalarimizning qo'liga kitob bersak, ertaga ular mamlakatimizga buyuk kashfiyotlar va ulug'vor ishlar tuhfa etadilar", deb ta'kidlaydi.

Biz bu so'zlar naqadar haqiqat ekaniga Bekobod bag'rini kitobning zavqu shavqiga to'ldirgan yoshlar, mutolaa madaniyatiga yanada kuchli turtki bergan "Yosh kitobxon" tanlovi misolida guvoh bo'ldik.

Muhtasham yakun

To'rt kun davomida barchaning qalbiga muhrilanib ulguragan muhim tanlov nihoyasiga yetib borar ekan, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev juda quvonchli xabarni yetkazdi. Ya'ni "Yosh kitobxon" tanlovi tarixida ilk marotaba bosh sovrin,



ya'ni Prezident sovg'asini bu yil davlatimiz rahbarining shaxsan o'zi topshiradi. Ana endi yoshlar ko'zidagi faxru iftixonni, ota-onalar qalbidagi shodlikni ko'ring!

Tanlov jarayonidagi his-hayajonlar bir taraf bo'ldi-yu, ushbu xushxabar shodligi hammani ruhlantirib yubordi. O'zingiz tasavvur qiling, munosib ishtirokchilar va g'oliblarni shaxsan Prezidentimizning o'zi qutlata, barcha ishtirokchilar bilan shaxsan uchrasha, bu katta baxt-ku axir!

Nihoyat natijalar e'lon qilinib, Bekobod tumani bag'ri tabriklaru shodon qiyiriqlar, sevinch ko'z yoshlariyu guldastalarga to'lgan bir paytda biz — bekobodliklar hammadan ham xursand edik.

Boisi, chekka va olis, qoloq tuman deb atab kelingan Bekobodimiz kitobxonlik va ma'rifat tantanasiga mezbonlik qildi. Ushbu tanlovni yuqori saviyada o'tkazishdek ishonchni oqlashga butun jamoatchilik birlashib harakat qildik.

Tadbir yakunida so'z olgan hay'at raisi, professor Bahodir Karimning "Qayerda kitobxonlar yig'ilsa, qayerda kitob haqida fikr aytilsa, o'sha joy mamlakatning

ma'naviy markazi sanaladi. Men bugun Bekobod tumani ana shunday markaz deb bilaman. Chunki tanlovni hozirgacha poytaxtimizda qanday o'tkazgan bo'lsak, bu yerda ham xuddi shu darajada — yuqori saviyada tashkil qilingan. Yurtimizning 14 hududidan kelgan bolalar Bekobodda o'tgan ushbu tanlov haqidagi yorqin taassurotlarini o'zlari bilan olib ketadi va umrbod faxrlanib gapirib yurishadi", deya e'tirof etgani har bir tumandoshimiz qalbini to'lqinlantirib yubordi.

Jigarbandomizdek bo'lib qolgan yosh kitobxonlar va ularning hamrohlarini kuzatar ekanmiz, ularning ko'zidagi quvonch va minnatdorlikni ko'rib, o'zimizga bildirilgan ishonchni oz bo'lsa-da uddalaganimizga behad shod edik. Yana bir quvonchan jihatimiz — ertaga bu qorako'z yoshlar davlatimiz rahbari bilan uchrashish baxtiga muayassar bo'lgani edi.

Shu bois, butun tuman ahli ular bilan qayta-qayta suratga tushib, bemiyl havas va duolar bilan poytaxtga kuzatdik.

Ertasiga — 22-may kuni ushbu qorako'zlarni butun mamlakatimiz tanidi, tan oldi va havas qildi. Yurtimiz yetakchisi yana bir ulkan loyihaga — Milliy kitobxonlik harakatiga start berar ekan, avvalo, "Yosh kitobxon" tanlovi va ishtirokchilariga alohida e'tibor qarattirdi. Tadbir davomida yoshlarni tabriklar ekan, "Hech qachon unutmanglar, aziz o'g'il-qizlarim! Ziyoli va ma'rifatli xalqni dunyoda hech bir kuch yenga olmaydi", deya ta'kidladi.

Garchi asosiy sovrin — avtomashina sohiblariga havas qilgan bo'lsak-da, o'sha yerda hozir bo'lgan 42 ishtirokchiga birdek nasib qilgan oliy mukofot bizni g'oyat xursand qildi. Bu mukofot Prezident bilan uchrashish baxti, bevosita shubhatlashish va birga suratga tushish sharafiga edi.

Shu o'rinda bugungi yoshlarga havas qilib aytamizki, biz uzoq yillar maktabda dars berib, jamoat faoli bo'lib butun millatni birlashtiradigan bunday kitobxonlik harakatini ko'maganmiz. Endi aytin, yillik mukofot fondi 240 ming dollar, birinchi o'rinni olganga 50 ming dollar, qayerda bor bunday ezuq harakat!

Davlatimiz rahbari ushbu yangi va keng miqyosli kitobxonlik harakati mohiyatini tushuntirar ekan "Har qanday millatning buyukligi, avvalo, uning ilmga bo'lgan munosabatida, kitobxonlik madaniyatida namoyon bo'ladi. Bugun start oylayotgan dastur mamlakatimizda kitobxonlikni mutlaqo yuksak darajaga olib chiqishiga ishonchim komil", deb yoshlarimizni ruhlantirdi.

Shunday ezuq maqsadlar yurtimizni kitobxon mamlakatga aylantirishini o'ylab, biz bekobodliklar ham cheksiz kuch va ilhomga yo'g'rildik. Farzandlarimiz, kelajak avlodlarimiz taqdiri uchun barchamizdan ko'p qayg'urayotgan Prezidentimizga dildilimizdan rahmatlar aytidik.

Umuman, davlatimiz rahbarining ziyolilarga, kitobxonalarga, adib va shoirlarga, madaniyat va san'at namoyandalariiga ko'rsatayotgan cheksiz e'tibor va e'tirofi uchun biz o'qituvchilar va ijod ahli hamisha chuqur ta'zimdamiz. So'zimiz nihoyasida mamlakatimiz yetakchisiga va'da berib aytamizki, Bekobod tumani milliy kitobxonlik harakatida ham eng ilg'or va peshqadam hududlardan biri bo'ladi. Chunki endi bekobodliklar qalbiga Prezidentimizning ulkan ishonch va e'tiborlari hamda "Yosh kitobxon" tanlovining unutilmas taassurotlari o'chmas ma'naviy imzo bo'lib muhrlandi.

- Umuya XALDAROVA, O'zbekiston HAYDO'QITUVCHISI
- Ashurali BOYMUROD, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir, "Do'stlik" ordeni sohibi
- G'animat ABDUG'OFUROVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi



Kun mavzusi

FOYDA SOLIG‘I NOL FOIZ

Kichik biznes egalari uchun yangi imtiyozlar berilmoqda

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda bu jarayon yanada samarali mexanizmga o‘zgaradi. Endi asosiy ochiq muloqotga qadar ham tadbirkorlar bilan muntazam tashkilotlar o‘rtasida yil davomida uchrashuvlar tashkil etilib, muammo va kamchiliklar muntazam muhokama qilinayapti. Qizig‘i, ularning natijasi ham uzoq kuttirmayapti. Tadbirkorlar o‘rtaga tashlayotgan masalalarning amaliy yechimi bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilinib, qisqa muddatda amaliyotga joriy etilayotgani biznes vakillarini yanada jonlantirayotir.

Prezidentimizning shu yil 26-maydagi “Kichik biznes subyektlarining o‘shishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma‘muriy sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi farmonini ham mamlakatimiz tadbirkorlari qizg‘in kutib oldi. Ko‘pchilik uchun bu kutilmagan xabar bo‘ldi. Ayniqsa, kichik biznes yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan yurtdoshlarimiz farmon bilan ularga berilayotgan yengilliklarni xursandchilik bilan qabul qildi. Aksariyatni ularni anachdan buyon qiynab kelayotgan masalalar hal etilishi barobarida katta imtiyozlar taqdim etilayotganini quvonib gapirdi.

Gap shundaki, mazkur farmonda kichik biznes subyektlari uchun soliq rejimini yanada qulaylashtirish, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) ma‘muriyati bilan bog‘liq, masalan, farmon bilan 2026-yil 1-iyundan boshlab umumiy o‘zlashtirilgan QQSni hisoblash va to‘lashning yangi soddalashtirilgan tartibini tanlash huquqi berilmoqda.

olinmaydi, tekshiruvlar qisqartirilib, hisobot topshirish majburiyati bekor qilinadi. Bular o‘zida yangi yengilliklar emas, ba‘zi tadbirkorlarning oyog‘iga yillar davomida

tushov bo‘lib kelayotgan katta og‘irlikni olib tashlashdir. Kichik bo‘lsa-da biznesini yuritib kelayotgan minglab yurtdoshlarimizning quvonchi boisi shunda.




Tadbirkorlar ham birin-ketin ushbu farmonga munosabat bildirib, yengilliklar ahamiyatini sharhlay boshladi. Chunki nazarda tutilayotgan o‘zgarishlar bevosita ularning faoliyati bilan bog‘liq. Masalan, farmon bilan 2026-yil 1-iyundan boshlab umumiy o‘zlashtirilgan QQSni hisoblash va to‘lashning yangi soddalashtirilgan tartibini tanlash huquqi berilmoqda.

“So‘nggi kunlarda kichik biznes uchun sharoitlar yengillashtirilishi haqidagi yangiliklar ishlabarmon doiralari tomonidan iliq kutib olinganini ko‘rib turibmiz. Bu masala anachdan buyon tadbirkorlar uchun og‘irlik bo‘lib kelayotgan edi. Hududlarga safarlar chog‘ida ular QQS to‘lashga o‘tish bo‘yicha 1 milliard so‘mlik chegara juda pastligi, soliq ma‘muriyatchiligi murakkabligi, tekshiruv va hisobotlar esa haddan tashqari ko‘pligini ta‘kidlab kelishardi. Natijada biznes xotirjam rivojlanish o‘rniga sun‘iy ravishda bo‘linishga majbur bo‘layotgan edi. Prezidentimiz imzolagan farmonga muvofiq, ushbu chegara 5 milliard so‘mgacha oshirildi. Buning samarasi, eng avvalo, oilaviy korxonalar, kafelar, do‘konlar, xizmat ko‘rsatuvchilar, bir so‘z bilan aytganda, o‘zining kundalik mehnati bilan mamlakatimiz iqtisodiyotini harakatga keltirayotgan minglab insonlar his qiladi”, deb yozdi Saida Mirziyoyeva.

Tadbirkorlar ham birin-ketin ushbu farmonga munosabat bildirib, yengilliklar ahamiyatini sharhlay boshladi. Chunki nazarda tutilayotgan o‘zgarishlar bevosita ularning faoliyati bilan bog‘liq. Masalan, farmon bilan 2026-yil 1-iyundan boshlab umumiy o‘zlashtirilgan QQSni hisoblash va to‘lashning yangi soddalashtirilgan tartibini tanlash huquqi berilmoqda.

Mazkur yangi tartibga ko‘ra, QQS stavkasi 6 foiz etib belgilanadi, foyda solig‘i 0 foiz bo‘ladi va hisobot topshirish



Ushbu imtiyozlarning amaliyotda qanchalik manfaatli ekanini shu soha odamlaridan ko‘ra hech kim yaxshiroq bilmasa kerak. Shu bois, farmonda nazarda tutilgan yangi tartib va imtiyozlar mamlakatimiz tadbirkorlari faoliyatiga qanchalik ta‘sir ko‘rsatishi bilan qiziqdik. Axir taklif va tashabbuslarning aksariyati biznes egalarning o‘zlari tomonidan bildirilgan.

QQS AVTOMATIK QAYTARILADI

Mamlakatimiz tadbirkorlari biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangilik va o‘zgarishlarni doimiy ravishda kutishi odatiy holga aylanib qoldi. Bu nihoyatda ijobiy tendensiya. Mana shuning o‘ziyoq davlat va biznes o‘rtasidagi ishonchli muloqot mustahkamlab borayotganidan dalolat. Aynan tadbirkorlar berayotgan takliflar, ko‘rsatayotgan muammolarning yechimi amaliy qarorlarda o‘z aksini topayapti. Davlatimiz rahbarining navbatdagi farmoni ham buning yaqqol misoli.

Unda nafaqat kichik biznes vakillari, balki yurtimizning barcha tadbirkorlari uchun muhim yengilliklar berilyapti. Ayniqsa, hisobot topshirishning bekor qilinishi va ma‘muriy jarayonlarning yengillashtirilayotgani haqida gap borganida, bu bilan tadbirkorning eng asosiy muammosi yechim topayotgani ko‘rinadi. Chunki aynan shu amaliyot biznes egalarning eng ko‘p vaqtini olib, ortiqcha ovragarchiliklarga sabab bo‘lib kelayotgan.

Har gal uchrashuvlarda kamida bir marta shu masala o‘rtaga tashlanadi. To‘g‘ri, hozir tekshiruvlar va qog‘ozbozlik avvalgidek emas. Ammo oxirgi vaqtlarda turli tekshiruvlarning nisbatan yana ortgani kutilib, bu tadbirkorlarning keskin e‘tirozini keltirib chiqarayotgani. Hatto bu masala ijtimoiy tarmoqlarda ham muhokama qilinganini ko‘pchilik biladi. Mana shu muammoga darhol yechim berilgani, tadbirkorlarning talabi qisqa muddatda qanoatlantirilgani ko‘pchilik uchun kutilmagan holat bo‘ldi. Shu bois, biznes vakillari mazkur farmonni katta xursandchilik bilan qabul qildi.

Albatta, bu yagona yengillik emas. Farmonda o‘zim bevosita faoliyat yuritadigan restoran va xizmat ko‘rsatish sohasi uchun muhim boshqa bir nechta yangilik ham ko‘zda tutilgan. Xususan, tadbirkorlarga soliq tizimini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyat berilyapti. Ya‘ni ayrim korxonalar soddalashtirilgan tartibni tanlash orqali 6 foiz QQS to‘laydi, foyda solig‘idan ozod qilinadi. Lekin bu barcha tadbirkorlar avtomatik tarzda foyda solig‘ini to‘lamaydi degani emas. Har bir korxonada o‘zining biznes modeli va iqtisodiy hisob-kitobidan kelib chiqib, o‘ziga foydaliroq tizimni tanlaydi. Masalan, kompaniyamizda yetkazib beruvchilarning deyarli barchasi QQS to‘lovchilar va QQS tizimida ishlash biz uchun iqtisodiy jihatdan maqbulroq. QQS o‘tish chegarasining 5 milliard so‘mgacha oshirishilishi yoki 6 foizli soddalashtirilgan



Davron HAMIDOV, “Memories Group” restoranlar tarmog‘i ta‘sischisi

tizimning ixtiyoriy ekani va yirik soliq to‘lovchi kompaniyalarga joriy etilmasligi boisi ham shunda. Ya‘ni bu bizniki kabi katta kompaniyalarning biznes modeliga katta ta‘sir ko‘rsatmasligi mumkin, ammo kichik va o‘rta biznes uchun ijobiy qaror deb bilaman hamda yangi tizim ularning faoliyatida qo‘shimcha imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Biroq QQSni avtomatik qaytarish mexanizmi, tekshiruvlar sonining kamayishi va ma‘muriy jarayonlarning soddalashtirilayotgani biz uchun ham, boshqa tadbirkorlar uchun ham juda foydali o‘zgarishdir. Birgina QQS bo‘yicha qaytarilishi kerak bo‘lgan mablag‘ni olish muddatini olaylik. Bu biz uchun muhim masala bo‘lib kelgan. Chunki yetkazib beruvchilar bilan asosan bank orqali ishlaymiz va katta hajmdagi QQS shakllanadi. Shu bois, ushbu soliqdan shakllanadigan kesheblar va mablag‘larning tezroq hamda avtomatik qaytarilishi biznes uchun muhim. Aynan shu yo‘nalishda avtomatik qaytarish mexanizmining joriy etilayotgani juda katta yangiliklardir.

Ayrim xodimlarni soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish imkoniyati yaratilayotgani ham ancha qulaylik tug‘diradi.

Gap shundaki, restoran biznesi inson resurslari bilan bog‘liq yo‘nalish. Kompaniyamizda ham 500 dan ortiq ishchi mehnat qiladi. Bu kichik raqam emas. Shu bois, isha qabul qilish va rasmiylashtirish jarayoni qanchalik soddala bo‘lsa, tadbirkor uchun ham, xodim uchun ham shunchalik qulay. Qolaversa, bu norasmiy bandlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Jarayon o‘zida va tushunarli bo‘lsa, xodimlarni qonuniy rasmiylashtirishga rag‘bat ortadi. Natijada har bir xodimning ijtimoiy himoyasi kuchayib, biznes yanada shaffof ishlaydi.



HAR BIR ISH O‘RNI RASMIYLASHTIRILADI

Tadbirkorlar ushbu farmonni birdan katta hayajon, yuqori ishonch va ijobiy kayfiyatda qabul qilgani bejiz emas. Bizni quvonitirayotgan asosiy sabab — yillar davomida biznesning o‘shishiga to‘siq bo‘lgan eng og‘irli nuqtalar, xususan, katta soliq yuki, murakkab hisobotlar va tinimsiz tekshiruvlar bir vaqtning o‘zida yengillashtirildi. Bu — endi tadbirkorlar erkin nafas oladi, bor e‘tiborini tekshiruvlarga emas, biznesini rivojlantirishga qaratadi degani.

Ochig‘ini aytganda, tadbirkorlar uchun qo‘shimcha yengilliklar berilishini kutgandik. Chunki biznes vakillari bilan doimiy muloqotlar davomida ko‘tarilayotgan masalalarga yechim berilib, amaliyotga joriy etilishi yurtimizda an‘anaga aylanib ulgurdi. Ahamiyatlisi, bu jarayonlarda bevosita tadbirkorlarning o‘zi ishtirok etayotir.

Lekin foyda solig‘ining 0 foiz etib belgilanishi hamda hisobotlarning bekor qilinishi, to‘g‘risi, kutinganizdan ham ortiqroq. Va bular biz uchun kutilmagan sovg‘a bo‘ldi. Qolaversa, farmon bilan kichik va o‘rta biznes uchun berilayotgan har bir imtiyoz zamirida katta imkoniyatlar bor. Masalan, ilgari yillik aylanmamiz 1 milliard so‘mdan oshsa, darrov og‘ir soliq tizimiga o‘tardik, endi bu chegara deyarli 5 milliard so‘mgacha oshirildi. Ya‘ni soliq



Lola MIRZAYEVA, “KHIVA PLAZA” MCHJ hamda “Farovon Hotels Group” rahbari

solishning umumbelgilangan tartibiga o‘tish uchun chegaraviy miqdor BHMning 12 ming baravari etib belgilanmoqda.

Soliq imtiyozlari doim tadbirkorga qulaylik beradi. Chunki biznes egalari daromadining katta qismi soliqlarga to‘lanadi. Masalan, korxonamiz o‘tgan yili 1,5 milliard so‘mdan ko‘proq qo‘shimcha qiymat solig‘i to‘lovini to‘lagan. Bundan tashqari, umumiy o‘zlashtirilgan va mehmonxonalar sof foydasidan 15 foiz foyda solig‘i to‘lanadi.

Yangi farmon bilan esa endi ana shu soliq to‘lovlarning biri ikki barobar qisqartirilib, boshqasi nol foizga tushirilyapti. Bu tadbirkor foyda solig‘ini to‘lashdan ozod bo‘lyapti degani. Davlat bu orqali ishlabarmonning topgan sof foydasini o‘zida qoldirib, biznesni qayta investitsiya qilish va kengaytirishga rag‘batlantirmoqda.

Korxonamiz asosan aholi va sayyohlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri xizmat ko‘rsatgani bois, ushbu soliq imtiyozlaridan to‘liq foydalanishni rejalashtiryapmiz. Chunki bu — haqiqiy yengillik. Qolaversa, tadbirkor foyda solig‘i hisobotini topshirishdek “bosh og‘rig‘i”dan ham qutuladi. Ilgari hisobot uchun har bir sotib olingan mahsulotning, har bir chiqimning hujjati yig‘ilib, murakkab balanslar tuzish kerak edi. Bu buxgalteriya uchun ortiqcha ish va vaqt yo‘qotish bo‘lgan. Bu ham kamdek, korxonamiz tomonidan jo‘natilgan hisobotlar, albatta, soliq organlari tomonidan tekshirilib, oydinlik kiritilgan. Soliq tashkilotlariga tasdiqlovchi hujjatlar olib borilmaguncha hisobotlarimiz qabul qilinmagan. Endi ana shunday ovragarchiliklar sabab sarson bo‘lmaymiz.

Tadbirkomi eng ko‘p qiynaydigan yana bir masala — soliq tekshiruvlarining ko‘pligi, QQS guvohnomasining asosiz bloklab qo‘yilishi, kontragentlar bilan

HISOBOTLAR YUKI YENGILLASHMOQDA

25 yildan ortiq vaqt davomida saqlab kelingan ushbu amaliyot natijalari buning yaqqol isboti.

Tadbirkorning qo‘rquvi aynan o‘shalar sabab shakllanganini ham biz keyinroq angladik. Bugun mamlakatimiz tadbirkorlarining erkin, qo‘rqusiz faoliyat yuritayotgani zamirida ham ana o‘sha soliq tekshiruvlarining keskin qisqartirilgani, to‘lovlarning shaffof tizimga o‘tkazilgani kabi omillar turadi. Bu jarayon yanada takomillashtirilyapti. Endi biznes egalari biror muammo yuzaga kelsa, undan qochmayapti, balki ochiq o‘rtaga tashlab, yechim so‘rayapti.

Davlatimiz rahbarining navbatdagi farmonini tadbirkorlar katta quvonch bilan kutib olgani boisi shunda. Unda kichik biznes uchun yangi soliq imtiyozlari berilayotgani bir tomon bo‘lsa, tekshiruvlarning yanada qisqartirilishi yana bir katta, kutilgan qulaylik sifatida qabul qilinmoqda. Ayrim hisobot va ma‘muriy jarayonlar soddalashtirilib, soliq yukining yengillashtirish va rasmiylashtirish ishlarining osonlashishi ham tadbirkorlar uchun katta yordam bo‘ladi.

Bu, avvalo, biznes egalari ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflaydigan

jarayonlarni qisqartiradi. Masalan, yirik kompaniyalarda professional moliyachi va buxgalterlar jamoasi ishlagani bois, jarayon unchalik qiyinchilik tug‘dirmasligi mumkin. Ammo kichik biznesda korxonamiz egasining o‘zi imkoniyatidan kelib chiqib, bir vaqtning o‘zida ham rahbar, ham menejer, ham moliyachi vazifasini bajaradi. Ko‘pincha asosiy vaqti biznesini rivojlantirishdan ko‘ra, hujjatlarni tartiblashga ketib qoladi. Hisobotlar sonining qisqarib, nazorat jarayonining soddalashtirilishi esa kichik va o‘rta biznes egalarga qulaylik yaratadi.

O‘zim ham ko‘p yillardan beri buxgalteriya sohasida ishlab kelayotganim, korxonamiz tadbirkorlarga shu yo‘nalishda xizmat ko‘rsatgani bois, imzolangan farmonni juda ijobiy qabul qildim. Ayniqsa, foyda solig‘ining nol foiz etib belgilanishi men uchun ham kutilmagan bo‘ldi. Bu belgilangan shartlarga mos keladigan tadbirkorlar muayyan muddatda foyda solig‘ini to‘lamasligi mumkin degani. Ilgari foydadan ma‘lum foiz soliq to‘langan bo‘lsa, endi o‘sha mablag‘ tadbirkorning o‘zida qolib, biznesni kengaytirishga sarflanadi.

Umuman, biz — tadbirkorlar bildirgan ko‘plab takliflar farmonda o‘z yechimini topgan. Yana bir qulaylikni ta‘kidlashni istardim. Endi umumiy o‘zlashtirilgan va mehmonxonamiz sohasida xodimlarni soddalashtirilgan tartibda, ya‘ni bir kunlik yoki 7 kunlik kabi qisqa muddatga ham yollash mumkin. Bu ham xodimlar bandligini rasmiylashtirish mexanizmlaridan biri bo‘lib, odamlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratishni ta‘minlaydi.

Albatta, har qanday yangi tizimga moslashish uchun muayyan muddat kerak. Ammo umumiy hisobda, belgilangan o‘zgarishlar tadbirkorlar foydasiga xizmat qiladi. Ayniqsa, hisobot jarayonlarining soddalashtirilishi va soliq sohasidagi yengilliklardan samarali foydalanishni rejalashtiryapmiz. Bu orqali vaqtni tejab, biznesni yanada rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ochig‘i, tadbirkorlarga berilayotgan yangi imkoniyat va imtiyozlar davlatimiz rahbarining bizga bo‘lgan ishonchi belgisidir. Bunga munosib javob sifatida yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari ochish va xalqimiz farovonligini oshirishga tayyormiz.



Mohinur RAHIMJONOVA, xususiy tadbirkor

Tadbirkorlar uchun soliq to‘lovi va hisobotlar doim asosiy masalalardan bo‘lib kelgan. Bu jarayon qancha qiyin, bosimli, ortiqcha tekshiruv va qog‘ozbozliklarga to‘la bo‘lsa, biznes yuritishda shaffoflik shuncha kamayib boradi. Ishlabarmon o‘sha qiyinchiliklardan qochib, yashirin iqtisodiyotga o‘ta boshlaydi. Gap uning noqonuniy yoki yashirin faoliyat yuritishida emas, balki ortiqcha ovragarchiliklardan bezgani, vaqtini behuda sarflashni istamagani bilan bog‘liq. Mamlakatimizda





Dunyoda inson umridan, salomatligidan ulgur'roq boyluk yo'q. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining markazida esa inson qadri tushunchasi eng avvalgi o'rinda. Shu yurtning har bir farzandi o'zini har tomonlama himoyalagan his qilishi, xususan, malakali, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniga ega bo'lishi, birinchi navbatda, xalqning davlatga, bugungi va ertangi kuniga ishonchini mustahkamlaydigan asosiy omillardan.



Asliddin ABDURAZZOQOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Keyingi yillarda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar ana shu ulgur'vor maqsad yo'lidagi muhim qadamlardan bo'ldi. Yangi shifoxonalar qurilib, zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi, yuqori texnologik amaliyotlar soni ortib, tibbiyotning ko'plab yo'nalishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Ammo bu hali hammasi mukammal, harakatdan, rivojlanishdan to'xtab qolishga haqqimiz bor degani emas. Tobora shiddat bilan taraqqiyot pillaposyasidan ildamayotgan davr tizimida yanada chuqur o'zgarishlarni, boshqaruvda mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 5-maydagi "Sog'liqni saqlash tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ana shu ehtiyojdan tug'ilgan tarixiy hujjat, zamonaning ayni yo'nalishda qarshimizga qo'yayotgan savollariga munosib javob bo'ldi. Kengroq tushuntirish, qarorda boshqaruv madaniyati, strategik rejalashtirish, ilmiy tahlil, klinik nazorat, jamoatchilik bilan muloqot, raqamlashtirish va professional javobgarlik singari masalalar yagona tizim holatida ko'rilmog'chi. Ularning har biri haqida qisqacha mulohaza yuritishni maqsad qilдик.

Institutsional asos

Tarixga nazar tashlansa, har qanday buyuk sivilizatsiya negizida to'g'ri boshqaruv siyosati, inson qadri va taqdirini ulgur'vor, sog'lom va barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilganini kuzatish mumkin. Qadimgi Sharq tabobati, yunon tibbiy maktablari, Movarounnahrda ilim markazlari — bularning barchasi inson salomatligiga jamiyatning ma'naviy va madaniy darajasini belgilovchi mezon deb qaragan kishilarning tafakkuri mahsulati edi. Zero, inson hayotiga munosabat davlatning o'z xalqiga munosabatini ham aks ettiradi.

Bugun zamonaviy davlat qudrati faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'lchanmaydi. Aholining umr davomiyli, onalar va bolalar salomatligi, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasi, profilaktika tizimining ishlashi kabi omillar rivojlanishning eng muhim mezonlari qatorida turibdi. So'ngi yillarda dunyo boshdan kechirgan pandemiyasi singari og'ir sinovlar ham buning yaqqol dalilidir. Ya'ni sog'liqni saqlash tizimi zaif bo'lgan jamiyatlar eng murakkab vaziyatlarda katta yo'qotishlarga duch keladi. Tibbiyot faqat kasallik paytida eslanadigan soha emasligi, u milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy osoyishtalik bilan bevosita bog'liq tizim ekanini jahon ahli yanada chuqur anglab yetdi.

Yangicha yondashuvlar

Barqaror rivojlanish insoniyat taraqqiyotining zamonaviy konsepsiyasi sifatida iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni nazarda tutadi.

2015-yilda BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun tarixida 17 ta barqaror rivojlanish maqsadi belgilangan bo'lib, ular qashshoqlikka barham berish, sog'liqni saqlash, sifatli ta'lim, sanoatni modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va

ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqarish, mahsulot sifati, xavfsizlik, resurslardan samarali foydalanish va xalqaro bozorlarga chiqishni ta'minlaydigan institutsional mexanizmlar ham muhim. Ana shunday institutlardan biri texnik jihatdan tartibga solish institutidir. Texnik jihatdan tartibga solish mahsulot, xizmat, jarayon va texnologiyalarga qo'yiladigan majburiy va ixtiyoriy talablar tizimi bo'lib, texnik reglamentlar, standartlar, metrologiya, muvofiqlikni baholash va akkreditatsiya orqali amalga oshiriladi. Mazkur institut mamlakatda xavfsiz va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, aholi salomatligini muhofaza qilish, energiya tejamlor texnologiyalarni joriy etish,

Inson salomatligi jamiyatdagi ijtimoiy ishonch muhitiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Oddiy misol. O'zi yoki oila a'zolaridan biri betoblikdan aziyat chekayotgan inson malakali tibbiy xizmatdan foydalana olsa, murakkab vaziyatda o'zini yolg'iz his qilmasa, ana shunda davlatga, islohotlarga ishonch ham mustahkamlanadi.



TIBBIYOT TIZIMIGA ISHONCH jamiyatdagi umumiy adolat tuyg'usini ham kuchaytiradi



konsalting, ekspertiza va menagement tajribasi bilan uyg'unlashgan holda rivojlanishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa boshqaruvda yopiq tizimdan ochiq va raqobatbardosh tizimga o'tish jarayonini tezlashtiradi.

Farmon bilan sog'liqni saqlash tizimida yangi turdagi institutlar shakllantirilmog'chi. Sog'liqni saqlash sohasida davlat siyosatining samaradorligini baholash, aholi salomatligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish va prognozlash, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish hamda strategik qarorlar qabul qilish uchun tahliiliy ma'lumotlar tayyorlash maqsadida Salomatlik va strategik rivojlanish instituti negizida tashkil etilayotgan Aholi salomatligini tahlil qilish ilmiy-tadqiqot markazi ana shunday tuzilmalardan. Ushbu markaz qaror qabul qilish uchun analitik asos yaratadi. Ya'ni endi sog'liqni saqlash siyosati aniq ma'lumotlar tahlili va prognozlar asosida shakllantiriladi.

Klinik audit inspeksiyasining tashkil etilishi esa tizimda yangi turdagi nazorat madaniyati paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Inspeksiya tibbiyot muassasalarining faoliyati, xizmat sifati va klinik standartlarga rioya etilishini mustaqil baholaydi. Shu orqali tizimda ichki nazoratdan tashqi va professional nazoratga o'tish jarayoni boshlanadi. Bu esa sifat masalasini subyektiv qarashlardan chiqarib, aniq mezonlarga bog'laydi.

Yana bir muhim jihat—tibbiyot tizimida axborot siyosatining alohida institut darajasiga ko'tarilishi. Sog'liqni saqlash sohasidagi yangiliklar, tibbiy xizmatlar va davlat siyosatini jamoatchilikka xolis va tezkor yetkazish, shuningdek, jamoatchilik fikr-mulohazalarini tizimli ravishda yig'ish hamda tahlil qilish va axborot siyosatini samarali tashkil qilish maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan davlat muassasasi shaklida Kontent mediamarkazining tashkil etilishi orqali sog'liqni saqlash sohasidagi jarayonlar jamoatchilikka tizimli, tezkor va izchil yetkazilishi ko'zda tutilmoqda. Bu jamoatchilik fikrini o'rganish va tahlil qilish bilan bog'langan ikki tomonlama kommunikatsiya modelidir. Shu bilan birga, "Call-markaz" va qayta aloqa tizimining joriy etilishini ham boshqaruv falsafasidagi o'zgarishning amaliy ifodasi deyish mumkin. Umuman, sog'liqni saqlash tizimi endi tahlil, vakolat taqsimoti, loyiha

boshqaruvi va mustaqil nazorat mexanizmlariga tayangan murakkab institutlar majmuasiga aylanmoqda.

Professional mas'uliyat va boshqaruv madaniyati

Har qanday tizimning haqiqiy qiyofasi uni boshqarayotgan insonlarning mas'uliyatida, qaror qabul qilish tezligi va aniqligida, eng muhimi, natijaga munosabatida namoyon bo'ladi. Bugungi islohotlar aynan shu jihat — inson omilini markaziy o'ringa olib chiqmog'chi. Farmon sohada rahbarlik tizimini butunlay yangi formatga o'tkazishga xizmat qiladi. Respublika va hududiy darajadagi tibbiyot muassasalari rahbarlari bilan mehnat shartnomalari cheklangan muddatga, ya'ni besh yilgacha tuzilishi belgilandi. Bu oddiy tashkiliy o'zgarish bo'lmay, boshqaruvda "natija asosidagi rahbarlik" tamoyiliga o'tishdir. Rahbarlar belgilangan muddatda yuritgan samarali faoliyati bilan baholanadi.

Yangi modelning eng muhim talablaridan biri shuki, nomzod rahbarlik lavozimiga tayinlangan, qisqa muddatda, aniqrog'i, olti oyda muassasa rivoji bo'yicha biznes-reja ishlab chiqishi va uni Sog'liqni saqlash vazirligida himoya qilishi zarur. Mazkur talab, o'z navbatida, tibbiyot boshqaruvi rejalashtirish madaniyatini olib kiradi. Har bir shifoxona yoki markaz o'z yo'nalishini oldindan puxta ishlab chiqilgan strategiya asosida belgilaydi.

Shuningdek, rahbarlar uchun bir yil muddatda tibbiyot menejmenti va moliyaviy boshqaruv bo'yicha malaka oshirish majburiyati belgilanishi ham muhim burilishdir. Bu orqali tibbiyot rahbarining faqat klinik tajribaga ega bo'lishi yetarli emasligi, uning iqtisodiy, tashkiliy va strategik bilimlari ham egallangan bo'lishi zaruriy ochiq ko'rsatib berilmog'chi. Chunki zamonaviy shifoxona nafaqat davolash maskani, ayni vaqtda murakkab moliyaviy va boshqaruv tizimiga ega yirik tashkilot hamdir.

Bundan tashqari, tibbiyot muassasasi rahbarining bevosita tibbiy amaliyot bilan shug'ullanishi cheklanadi. Ayrim hollarda faqat ilmiy-amaliy maqsadlar uchun ruxsat berilishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Mazkur qaror

rahbarning diqqatini klinik amaliyotdan boshqaruvga to'liq yo'naltirishga xizmat qiladi. Negaki boshqaruv va amaliy tibbiyot bir paytda to'liq samarali yuritilishi har doim ham mumkin emas. Bundan buyon rahbarning asosiy vazifasi tizimni boshqarish, samaradorlikni oshirish va resurslarni to'g'ri yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Muhim yangiliklardan yana biri samaradorlikni baholashning yagona mezoni sifatida KPI tizimining joriy etilishidir. Bunda tibbiyot muassasasi faoliyati bir necha aniq ko'rsatkich asosida baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlar orasida tibbiy xizmat sifati, moliyaviy intizom, boshqaruv samaradorligi, raqamlashtirish darajasi, kadrlar siyosati va boshqa muhim yo'nalishlar mavjud. Belgilangan ko'rsatkichlarga erishilmagan taqdirda esa mehnat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

Yana bir muhim yo'nalish tibbiyot assotsiatsiyalarining rolini kuchaytirish bilan bog'liq. Aniqrog'i, professional tibbiyot hamjamiyatlarini o'z ichiga olgan mahalliy, aksincha, tizimni shakllantirishda faol ishtirok etuvchi subyektlarga aylantirish. Ular tibbiy yordam standartlarini ishlab chiqishda qatnashadi, xizmat sifati baholashida ishtirok etadi, mutaxassislarini sertifikatlash va qayta tayyorlash jarayonida mustaqil ekspert sifatida jalb qiladi. Shuningdek, tibbiyot assotsiatsiyalarining mustaqil audit o'rtakazish vakolati ham muhim yangilikdir. Bu orqali tibbiyot muassasalarining faoliyati ham ichki nazorat, ham tashqi professional baholash bilan tekshiriladi. Natijada sifati yashirish yoki rasmiy ko'rsatkichlar bilan cheklash holatlari kamayadi.

Farmonning moliyaviy va tashkiliy boshqaruvga oid qismi ham alohida e'tiborga loyiq. Tibbiyot muassasalariga ajratilgan mablag'larning yil yakunida olib qo'yilmasligi va keyingi yil biznes-reja tuzishda inobatga olinishi tizimda yangi iqtisodiy rag'bat mexanizmini yaratadi.

Sohaning kelajak arxitekturasini

Bugun dunyoda tibbiyotning tabiati asta-sekin o'zgarib bormog'chi. Avvallari shifokor qarori, tajriba va kuzatuv asosiy o'rinda turgan bo'lsa,

endi bu jarayonlarga ma'lumotlar oqimi, raqamli tizimlar va integratsiyalashgan platformalar tobora kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Sog'liqni saqlash tizimi ham ulkan ma'lumotlar ekotizimini o'zida jamlaydi. Mazkur farmon aynan shu haqiqatni chuqur anglagan holda, sog'liqni saqlash tizimini raqamli transformatsiya yo'lga olib chiqishni strategik vazifa sifatida belgilab berdi.

Eng avvalo, barcha axborot tizimlari, platformalar va raqamli yechimlar uchun yagona arxitektura va integratsiya standartlari joriy etilishi tizimning ichki tartibini tubdan o'zgartiradi. Ma'lumot almashinuvi protokollari va axborot xavfsizligi talablari esa tizimning ishonchligini ta'minlovchi asosiy poydevor vazifasini bajaradi.

Farmon bilan davlat tibbiyot muassasalarida axborot tizimlarini bosqichma-bosqich to'liq joriy etish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan. Sababi raqamlashtirish bir zumda amalga oshiriladigan jarayon emas. U bosqichma-bosqich, sinov va moslashuv orqali shakllanadigan murakkab transformatsiya. Shu tufayli "yo'l xaritasi" ayni jarayonni tartibga soluvchi asosiy instrument bo'lishi dardkor.

Shuningdek, raqamlashtirishning asosiy jihatlardan biri monitoring va baholash tizimining joriy etilishidir. Endi axborot tizimlari amalda qanday ishlayotganiga ko'ra baholanadi. Tizimlar tibbiy xizmat sifatiga qanday ta'sir qilayotgani, boshqaruvning tezkorligi va aniqligini qanchalik oshirayotgani doimiy kuzatuvda bo'ladi. Tibbiyot xodimlarini axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha uzluksiz o'qitish va malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilmog'chi. Boisi, texnologiyalardan samarali foydalana oladigan kadrlarsiz ular hech qanday amaliy qiymatga ega emas. Aks holda, eng ilg'or tizim ham amaliyotda samara bermasligi ehtimoli yuqori.

Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim bosqichi amaldagi tizimlarning samaradorligini kompleks baholashdir. Farmonga ko'ra, Hisob palatasi tomonidan mustaqil ekspertlar ishtirokida o'tkaziladigan audit jarayonlari orqali sog'liqni saqlash sohasida joriy etilgan axborot tizimlari chuqur tahlil qilinadi. Bu jarayonda texnik ishlab darajasi bilan birga ularning moliyaviy samaradorligi va amaliy natijasi ham o'rganiladi.

Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator — "UZINFOCOM" MCHJ tomonidan sog'liqni saqlash sohasida ishlab chiqilgan axborot tizimlari va joriy loyihalarining samaradorligi hamda shartnomalar audit predmeti etib belgilangan. Bu yondashuv raqamli loyihalarining real hayotda qanchalik foyda berayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Samarali deb topilgan tizimlar rivojlaniriladi, samarasizlari esa qayta ko'rib chiqiladi yoki bekor qilinadi. Shu orqali resurslarning oqilona sarflanishi ta'minlanadi. Shu bilan birga, raqamli tizimlar tibbiyotdagi shaffoflik darajasini ham oshiradi. Umuman, mazkur jarayon boshqaruv madaniyati, javobgarlik tizimi va tibbiy xizmat sifati bilan chambarchas bog'liq keng qamrovli transformatsiyadir.

Farmon tibbiyot tizimida professional jamiyatning rolini ham yangicha yo'linda talqin qilish ehtiyojini tug'dirdi. Tibbiyot assotsiatsiyalariga berilgan vakolatlari orqali soha ichidagi professional hamjamiyat qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb etilmog'chi. Standartlar ishlab chiqish, sertifikatlash jarayonlarida ishtirok etish, malaka baholash va mustaqil audit o'rtakazish vakolatlari tibbiyotdagi professional o'zini o'zi tartibga solish tizimi shakllanayotganini ko'rsatadi.

Bir so'z bilan aytganda, sog'liqni saqlash tizimi jamiyatdagi ishonch, adolat va inson qadri bilan shakllantiruvchi muhim institutdir. Shu ma'noda, farmon bilan boshlangan yangi bosqich tibbiyot tizimini texnik yo'li tashkiliy yangilanishlar darajasidan olib chiqib, uning ijtimoiy ong, boshqaruv madaniyati va inson qadri bilan chambarchas bog'liq xalq tizimiga aylantirmog'chi. Bu esa sog'liqni saqlash sohasida yangi davr boshlanganidan dalolat beradi.

SIFAT VA XALQARO STANDARTLAR

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA MUHIM AHAMIYAT KASB ETADI

atrof-muhitga salbiy ta'simi kamaytirish va xalqaro savdo to'siqlarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Tahlillarga ko'ra, texnik jihatdan tartibga solish instituti o'zaro uzviy bog'liq besh asosiy elementdan iborat. Bular: texnik reglamentlar, standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash, akkreditatsiya.

Texnik reglamentlar mahsulot va xizmatlarga nisbatan majburiy xavfsizlik talablarini belgilaydi. Ular inson hayoti va salomatligini muhofaza qilish, atrof-muhitni saqlash, energiya samaradorligini ta'minlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Standartlashtirish esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini muvofiqlashtirish, mahsulot sifati oshirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Xususan, ISO 9001 sifati boshqaruvi, ISO 14001 ekologik boshqaruv, ISO 50001 energiya menagement standartlari korxonalarining barqaror ishlarini ta'minlaydi.

Metrologiya texnik jihatdan tartibga solishning eng muhim elementlaridan bo'lib, o'lchovlarning aniqligi va ishonchligini ta'minlaydi. Energiya sarfi, havo ifloslanishi, suv sifati, tibbiyotda diagnostika, oziq-ovqat xavfsizligi kabi sohalarda aniq o'lchashlar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning asosiy shartidir.

Muvofiqlikni baholash mahsulot yoki xizmatning belgilangan talablarga mosligini aniqlash jarayoni. U sertifikatlashtirish, deklaratsiyalash, sinov va inspeksiya shakllarida amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya esa laboratoriyalar, sertifikatlashtirish organlari va inspeksiya tashkilotlarining munosibligini rasman tan olish mexanizmi. Akkreditatsiya qilingan tashkilotlar tomonidan berilgan sertifikatlar xalqaro bozorda ham tan olinadi.

Energiya tejamlorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari foydalanish barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan. Texnik jihatdan tartibga solish instituti ushbu jarayonda

energiya samaradorligi standartlari, energiya auditori va o'lchash tizimlari orqali ishtirok etadi. ISO 50001 standartini joriy etgan korxonalarda energiya sarfi o'racha 10-15 foiz kamayishi kuzatiladi. Elektrik jihozlari uchun energiya samaradorligi bo'yicha texnik reglamentlar qabul qilinishi orqali energiya tejaydigan mahsulotlar ulushi oshib bormog'chi.

Tadqiqotlar texnik jihatdan tartibga solish sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti uchun katta samara berishini ko'rsatadi. Standartlashtirish va sertifikatlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini kamaytiradi, mahsulot sifati va eksport hajmini oshiradi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, standartlashtirish iqtisodiy o'sishga yalpi ichki mahsulotning 0,5-1 foiz miqdorida hissa qo'shadi. Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi standartlashtirish va innovatsiyalarning iqtisodiy taraqqiyotda muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Naibaxon MAMADALIYEVA, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori maslahatchisi

2026-yil 2-iyun, 110-son

“Temur tuzuklari” – milliy davlatchiligimiz dasturi



Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari davlat boshqaruvi va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik hamda adolat mezonlarini o'zida mujassam etgan bebaho qomusiy manbadir. Saltanatni kengash va tadbir asosida boshqarish, el manfaatini har narsadan ustun qo'yish borasidagi ushbu o'g'itlar qariyb yetti asrdan buyon dunyo olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda bu muhtasham asarni tadqiq etish va xalqimiz orasida keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kitobning bir necha bor nashr etilgani, maxsus internet sayti (**temurtuzuklari.uz**) ishga tushirilgani buning yorqin isbotidir. O'quvchilarimizni ushbu nodir meros bilan yanada yaqindan tanishtirish maqsadida gazetamizda maxsus rukn tashkil etdik. Bu ruknida “Temur tuzuklari”dan

ibratli parchalar, kitob haqida qiziqarli maqolalar hamda o'zbek va dunyo olimlari e'tiroflarini berib borishni niyat qilganmiz. Mavzuni O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub “Temur tuzuklari” she'ri bilan boshlamog'damiz.

Tahririyat

“TEMUR TUZUKLARI”

Bobomdan qolgan ey so'zlar, ayo so'zlar, Menga darmonu quvvat ham davo so'zlar.

Bobom qurgan saroylar ichra sizlar ham Buyuk bir qo'rg'onsiz dahr aro, so'zlar.

Mening sha'nu g'ururim ham sharaf-shonim, Turar dunyo turar to bu bino, so'zlar.

Jahongirlik bila fathu zafarlardin Dilimga siz beribdirsiz safo, so'zlar.

Iki kaftin ochib turgandayin bobom, Qolibdursiz menga misli duo, so'zlar.

Jam o'lmish harbu zarbning san'ati sizda, Guvohdir olamu arzu samo, so'zlar.

Jahon to olgusi davlatchilik darsin, Jahon davlatlari sizlarda jo, so'zlar.

Misoli narrasherning na'rasidirsiz, Berursiz to qiyomat siz sado, so'zlar.

Ulug'vor saltanat shundoq bino bo'lmas, Ko'ribsiz qanchalar jabru jafu, so'zlar.

Og'irdir podshohlik birla baxt yo'li, Bo'lingiz menga ham siz Rahnamo, so'zlar.

Sirojiddin SAYYID, O'zbekiston xalq shoiri



Inson qadri uchun

Insonlarga yaxshilik qilish, ko'ngli yarimlar holidan xabar olish xalqimizning go'zal qadriyatidir. Prezidentimizning “Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil etish to'g'risida”gi qarori bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

UMID ULASHAYOTGAN MEHR KARVONI

Jarayonda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar holidan xabar olinmoqda. Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bolalar va vatan sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lganlar farzandlariga bir martalik moddiy yordam berilyapti. Shuningdek, og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan bolalarga bepul jarrohlik amaliyoti o'tkazilmoqda.

Mazkur ezgu amallar jamiyatda mehr-oqibat muhitini kuchaytiradi. Kam ta'minlangan oilalarga yengillik yaratib, insonlar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Navoiy viloyatida ham ushbu xayrli ishlar davom etmoqda. Prezidentimiz qarori ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatdagi og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan bolalar aniqlangan. Bemor bolalarda jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish rejasini ham ishlab chiqildi.

Qarorga ko'ra, bemorlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish, jarrohlik va davolash xarajatlari “Vaqf” xayriya jamoat fondi orqali qoplanmoqda. Fond esa ushbu xarajatlardan ajratilgan mablag'larni yo'naltirgan. Mehruvuvvat karvoni o'z harakatini viloyat bo'ylab to'xtatgani yo'q. Aholining ehtiyojidan kelib chiqib, vaucherlar o'z egalariга yetkazildi. Ular bundan respublikamizdagi barcha ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida foydalanishi mumkin.

— Bu yilgi Qurbon hayiti bayrami arafasida nogironligi bo'lgan, davlat ta'minotidagi kambag'al oilalarning 6369 tasiga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazildi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Farrux Fayozov. — Bugungi kunda viloyat bo'yicha og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan 139 bola ro'yxatga olindi. Bundan tashqari, onkologik kasallikka chalingani bois, ro'yxatga kirgan 563 bemor tezroq sog'ayishi uchun hududiy tibbiyot birlashmalarida 40 ta o'rin tashkil qilindi. Shuningdek, o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz yashovchi, nogironligi bo'lgan 928 fuqaroning holidan xabar olindi. Bundan tashqari, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 185 bola hamda xizmat o'tash davrida vafot etgan harbiylar farzandlarining hisob raqamiga 200 dollarlik depozit ajratib berilmoqda.



Nurota tumanining Nurobod mahallasida yashaydigan Feruza Zikriyoyevaning 1,5 yoshli farzandi Umarbekka qovuc churrasi tashxisi qo'yilgan edi. Unga davolanish uchun vaucher berilgach, Navoiy shahridagi viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Iroda Dilmurodova oyog'idagi nuqson sabab uzoq vaqtdan beri davolanishga ehtiyoj sezardi. Iroda va uning onasi uchun maxsus vaucher shunchaki tibbiy yo'llanma emas, balki kelajakka, sog'lom hayotga ochilgan yangi eshik bo'ldi. Navoiylik bu qiz endi Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazida sog'lig'ini tiklash va zarur muolajalar olish imkoniga ega bo'ldi.

— Tibbiy vaucher xasta, nogironligi bo'lgan men kabi turli yurtdoshlarimiz sog'lom hayotga qaytishi uchun katta tufaydi, — deydi Iroda Dilmurodova. — Shunday e'tibor markazidan bo'lganlar safida ekanimdan juda xursandman. Murakkab tibbiy muolajalar uchun mablag'imiz yo'q edi. Endi bepul davolanishim mumkinligini eshitib, onam ikkimiz juda sevindik. Vaucher olganimda amin bo'ldimki, barcha inson, biz kabi fuqarolar ham mehr-e'tibordan chetda emas. Umid va maqsadlarim ko'p. Oyog'imni davolaganimizdan keyin qo'lqitayog'larni tashlab, erkin yursam, orzularimni amalga oshiraman.

Ezgu sa'y-harakatlar Iroda kabi minglab bemor yigit-qizlarning yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari, qimmatbaho dori-darmonlar va reabilitatsiya kurslarini mutlaqo bepul olishiga kafolat bo'ldi. Insonparvarlik



tadbirlari yangicha yondashuv — “xonadonbay” tizimi asosida ham tashkil etilib, tibbiy yordamga muhtoj bemorlarning uylariga to'g'ridan to'g'ri kirib bormoqda.

— Viloyatimizda yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotiga muhtoj 200 ga yaqin bolajonni davolashga kirishilgan, — deydi Navoiy viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Nurali Safoyev. — Bundan tashqari, 100 ga yaqin onkologik bemorni davolash, jarrohlik amaliyoti o'tkazish, shuningdek, buyrak va jigar transplantatsiyasi bo'yicha ham amaliy ishlar qilinmoqda. Bugungi kungacha viloyatimizda 20 dan ziyod bola tibbiyot muassasalariga joylashtirildi. Ikki kun davomida o'n bolada jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Mazkur jarayon reja asosida davom etmoqda. Albatta, bu ezgu ishlar “Inson qadri” tamoyili asosida tibbiyot sohasidagi islohotlarning uzviy qismidir.

Ikki yoshli Soliha Sayfuddinova tug'ma yurak nuqsoni bilan dunyoga kelgan. Uning ota-onasi pul yig'ib, qizida jarrohlik amaliyoti o'tkazishiga erishdi. Biroq yondosh kasalliklar ham bezovta qilgani bois, u yana davolanishi kerak edi. Xayrli tadbir Solihaning sog'lig'i yanada yaxshilanishi uchun ajoyib imkon bo'ldi.

— Farzandim sog'lom hayotga qaytishiga katta yordam berildi, — deydi Solihaning onasi Shoirra Abdiyeva. — Davolanish, dori-darmon hammasi tekin. Bundan juda xursandmiz. Farzandim kelajakda yurt taraqqiyotiga xizmat qiladigan inson bo'lishiga ishonaman.

Xatirchi tumanida ham ezgu ishlar keng quloch yozdi. Belgilangan toifaga mos keladigan xasta bolajonlar tekin davolanishi uchun vaucherlar topshirildi.

— Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan va yolg'iz yashovchi 1915 ta oilaga 12 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari berildi, — deydi Xatirchi tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori Alisher Bahriddinov. — Davlat ta'minotidagi 1911 ta oila hamda yolg'iz fuqarolarga oziq-ovqat jamlanmalarini yetkazildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 22 bolaning onomat hisobvarag'iga pul o'tkazildi. Og'ir xastalikka chalingan 99 bemorga maxsus vaucherlar berildi.

Bu kabi amaliy ishlar xalqimizning asrlar osha amal qilib kelgan qadriyatlariga yangicha quvvat berdi. Muborak ayyomning mazmun-mohiyati insonlarga mehr ko'rsatish, ehtiyojmandlarga yordam berish kabi ezgu fazilatlar ekanini yana bir bor namoyon etadi. Navoiy viloyatida bunday tadbirlar davom etmoqda. Muhimi, mehrga tashna qalblarda ertangi kunga ishonch yanada mustahkamlanyapti.

G'olib ABDUSALOMOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



Futbol

MUNDIALGA HOZIRLIK AVJIDA

Futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi tarix yaratib, ilk bor jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritgan kundagi xush kayfiyat, bemisl hayajon mundial yaqinlashgani sari xalqimiz orasida yana yangi to'lqinda paydo bo'lmoqda.

Allaqachon AQSHga yetib borgan tarkib xususida muhokamalar avj olgan, muxlislar ilk o'yin sanasini kun sanab kutayotgan, yurtdoshlarimiz bilan bir safda butun markaziy osiyolik ishqibozlar hatto okeanortida ham futbolchilarimizni tantana bilan kutib olib, faol qo'llab-quvvatlayotgani futbolchilarimizga qo'shimcha rag'bat va kuch bag'ishlaydi.

Shu o'rinda 22-may kuni Prezidentimizning futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasini 2026-yilgi jahon chempionatiga kuzatish marosimidagi nutgiga e'tibor qaratomoqchimiz. Davlatimiz rahbari bugungi kun o'zbek futboli uchun yana bir tarixiy sana ekanini, milliy terma jamoasini AQSH, Meksika va Kanada maydonlarida o'tadigan jahon chempionatiga katta ishonch va ezgu tilaklar bilan kuzatilayotganini ta'kidlar ekan, “Endi futbolchilarga qarata aytmog'chiman: jahon chempionatida oson o'yinning o'zi yo'q. Sizlar Portugaliya, Kolumbiya, Kongo kabi terma jamoalar bilan o'ynaysizlar.

Xalqimiz har bir o'yinda sizlardan g'alaba kutishi tabiiy, albatta. Lekin bir narsani doimo yodda tuting: sizlar tarixni allaqachon yaratib bo'ldingiz! Oldingizda turgan muhim uchrashuvlarda ortiqcha bosimsiz, hech kimdan hayiqmasdan, boringizni berib o'ynang. Har bir to'p, har bir vaziyat, maydonning har bir qarichi uchun oxirigacha kurashingiz!” dedi.

Darhaqiqat, jahon chempionati haqida gap ketganda, ko'z oldimizga birinchi navbatda yig'inlar, mashg'ulotlar, taktik sxemalar va o'rtoqlik uchrashuvlari keladi. Murabbiylar tarkib ustida bosh qotiradi, tahlilchilar raqiblarni o'rganadi, futbolchilar esa jismoniy holatini yaxshilashga harakat qiladi. Bu tabiiy. Axir har qanday katta musobaqaga tayyorgarlik deganda aynan shu jarayonlar nazarda tutiladi.

Biroq yana bir muhim jihat bor — ruhiy tayyorgarlik. Jamoa qanchalik katta umidlarni ifoda eta boshlasa, uning yelkasidagi yuk shunchalik

og'irlashadi. Ya'ni azaliy orzusi ro'yobga chiqqan paytda inson ba'zan o'zini yo'qotib qo'yishi ehtimoli bor. Futbol tarixida jahon chempionatidagi debutlar turlicha kechg'an. Ayrim terma jamoalar musobaqaga chiqishning o'zi bilan cheklanib qolgan bo'lsa, ba'zilar aynan birinchi ishtirokidayoq kutilmagan natijalarga erishgan. Bu yerda qiziq qonuniyat ko'zga tashlanadi. Eng yaxshi qatnashgan jamoalarning aksariyati o'zini tarixiy voqea markazida turgan qahramonlar emas, navbatdagi futbol o'yiniga tayyorlanayotgan professional sifatida his qilishga muvaffaq bo'lgan.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston terma jamoasi oldida turgan vazifalardan biri jahon chempionatining ko'lamini to'g'ri baholashdan iborat. Ayni kunlarda esa musobaqaga tayyorgarlik avjida. Termamiz kuchli jamoalarga qarshi o'rtoqlik uchrashuvlarida maydonga chiqishi ko'zda tutilgan. Mundialda raqiblar darajasi, o'yin sur'ati boshqacha bo'ladi va shunga monand Kanada, Niderlandiya kabi

kuchli raqiblar tanlangan. Chunonchi, o'rtoqlik uchrashuvlarining vazifasi mundial muhitiga maksimal darajada yaqin sharoit yaratishdan iborat. Har bir o'yin orqali jamoa o'zini yaxshiroq tushunib boradi. Negaki futbolda o'z imkoniyatlarini noto'g'ri baholash eng xavfli xatolardan biridir.

Ya'ni asosiy maqsad jahon chempionati boshlangan kuni jamoa kim ekanini, nimalarga qodirlikni va qaysi yo'l bilan natijaga erisha olishini aniq bilishi shart. Zero, mundialda ba'zi savollarga javob izlash uchun vaqt bo'lmaydi. U yerda javoblarning o'zi bilan maydonga chiqishga to'g'ri keladi. Biz esa barcha savol va kutilmalarimizga jamoamiz va murabbiylar shtabida eng to'g'ri javoblar borligiga ishonamiz. Ulardan faqat va faqat “ortiqcha bosimsiz, hech kimdan hayiqmasdan, borini berib” to'p surishlarini va albatta, bir muxlis, shu vatan farzandi o'laroq mardonavor o'yin, katta g'alabalar kutib qolamiz.

Asliddin Karimqulov, jurnalist

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.

Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilibiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy